

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY - IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

**FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA
IJTIMOIIY INSTITUTLARINING ROLINI TOBORA ORTIB BORISHI.**

MALAKAVIIY BITIRUV ISHI

**Bajaruvchi: Rabbimova Sh.
Ilmiy rahbar: dots.Negmatov I.**

**Malakaviiy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2014 yil ___ ___dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma№___).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviiy bitiruv ishi YaDAKning 2014 yil ___ ___dagi majlisida
himoya qilindi va ___ foizga baholandi (bayyonnoma №___).**

Samarqand – 2014.

**Mavzu: FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH
JARAYONIDA IJTIMOIIY INSTITUTLARINING ROLINI TOBORA
ORTIB BORISHI.**

Kirish

**I BOB. FUQAROLIK JAMIYATINI TAHLIL ETISHNING
METODOLOGIK ASOSLARI.**

I.1. Fuqarolik jamiyatini o'rganishning metodologik asoslarining shakllanishi.

I.2. Fuqarolik jamiyatini tahlil etishning hozirgi zamon yondashuvlari.

**II BOB. FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING
SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

II.1. «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilining mazmun-mohiyati.

II.2. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda davlatning bosh islohotchilik roli.

**III BOB. FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH
JARAYONIDA IJTIMOIIY INSTITUTLAR ROLINI TOBORA
ORTIB BORISHI.**

III.1. Ko'ppartiyaviylik tizimining fuqarolik jamiyati instituti sifatida shakllanishi.

III.2. O'zini o'zi boshqarish organlari ijtimoiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanish jarayonlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Mavzu: FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA IJTIMOIIY INSTITUTLARINING ROLINI TOBORA ORTIB BORISHI.

Kirish

I BOB. FUQAROLIK JAMIYATINI TAHLIL ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.

I.1. Fuqarolik jamiyatini o'rganishning metodologik asoslarining shakllanishi.

I.2. Fuqarolik jamiyatini tahlil etishning hozirgi zamon yondashuvlari.

II BOB. FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

II.1. «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilining mazmun-mohiyati.

II.2. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda davlatning bosh islohotchilik roli.

III BOB. FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA IJTIMOIIY INSTITUTLAR ROLINI TOBORA ORTIB BORISHI.

III.1. Ko'ppartiyaviylik tizimining fuqarolik jamiyati instituti sifatida shakllanishi.

III.2. O'zini o'zi boshqarish organlari ijtimoiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanish jarayonlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: 23 yillik taraqqiyot yo`liga ega bo`lgan O`zbekiston bugungi kunda jahon hamjamiyatining munosib va teng huquqli a`zosi sifatida barcha sohalar taraqqiyoti jihatdan o`zini namoyon qilmoqda. Qisqa muddat davomida erishilgan yutuqlar va qo`lga kiritilgan imkoniyatlar o`z-o`zidan paydo bo`lgani yo`q. Buning zamirida uzoqni ko`ra bilish va xalqparvarlik siyosati yotibdi.

O`tish davrida fuqarolar tinchligini ta`minlash va milliy kelishuvga erishish qisqa muddatli siyosiy vazifalar sifatida qad tiklagan bo`lsa, insonparvar demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish – strategik maqsad qilib belgilandi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan yangilanish va taraqqiyotning o`ziga xos modeli ishlab chiqildi, amalga oshirila boshlandi, unda rivojlangan mamlakatlar tajribalariga tanlab olish maqsadi bilan yondashish, milliy davlatchiligimizning ko`p asrlik rivojlanish xususiyatlari hamda o`ziga xosliklarini hisobga olish ko`zda tutildi.

Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda aholining biron-bir guruhi boshqa bir guruhni o`ziga bo`ysundira olmaydi, shuningdek erkaklar bilan ayollarni bir-biri bilan bog`lab turuvchi ko`plab ijtimoiy fuqaroviy, diniy, iqtisodiy madaniy va aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi¹.

Mavzuning o`rganilganlik darajasi: Mamlakatni fuqarolik jamiyati bilan bog`liq bo`lgan ilmiy tadqiqotlar bugungi kundagi eng dolzarb va eng kam o`rganilgan mavzu bo`lib hisoblanadi. Chunki, ushbu konsepsiya 2010 yil 12 noyabrda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qo`shma majlisida muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bayon qilingan bo`lib ushbu mavzuga doir izlanishlar endigina amalga oshirilmoqda². Ushbu mavzuga doir izlanishlar

¹ Yaxshilikov J.Ya.Fuqarolik jamiyati shakllanayapti Buni anglab etayapmizmi? Zarafshon gazetasi. 2013 y. 18-mart.

² Karimov I. A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida” O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ro`zasi. Xalq so`zi gazetasi, 2010 yil 13 noyabr.-№ 220

asosan Prezident Islom Karimovning asarlari bilan bog'liq. Shuning uchun ushbu mavzuga doir har qanday izlanishlar o'zining dolzarbligi va yangiligi bilan ajralib turadi va qo'llab – quvvatlanishga loyiqdir. Mazkur mavzuga doir ilmiy tadqiqotni O'zbekistonlik olimlar Muqimjon Qirg'izboev¹, M. Sharfxo'jaev, F. Musaev, B. To'ychiev, Q. Nazarov, I. Ergashev, hamda SamDU professorlari Farxod Nabiye², J. Yaxshilikov³lar olib bormoqda va bugungi kunga qadar u tomonidan gazeta va jurnallarda bir qancha moqolalar nashr qilingan.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Hozirgi kunda O'zbekistonda shakllanib va rivojlanib borayotgan ijtimoiy ish xodimlarini professional darajada tayyorlash tizimini taqdiri va kelajagi ko'p hollarda davlatga va fuqarolik jamiyatini kuchlilik darajasiga bog'liqdir. Fuqarolik jamiyatini yanada samarali qilish esa uni tarixiga nazar solib boy tarixiy tajribalarni umumlashtirib ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun ilmiy shart-sharoit yaratishga bog'liq. Shuning uchun malakaviy bitiruv ishimizda mamlakatimiz hududida fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayonini, turli davrlardagi holatini va oilaga ta'sirini o'rganishni maqsad qilib quydik.

Mavzuning ob'ekti va predmeti – jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilining mazmun-mohiyati ilmiy izlanishning ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini mazmun mohiyatini hamda nazorat borasidagi davlat va jamiyatning sherikligini ahamiyatini ochib berish, davlat va jamiyatdan iborat bo'lgan mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasi davlatni demokratlashtirish va jamiyatni liberallashtirishdan iborat ekanligini hamda ijtimoiy tartibni o'rnatilishi nazorat borasida davlat va jamiyatning sherikligini o'rnatish muammolarini tahlil qilish tadqiqotning predmeti bo'lib hisoblanadi.

¹ Муқимжон Қирғизбоев. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. Т.-«Ўзбекистон». 2010 й

² Nabiev F.X. Jamoatchilik va parlament nazorati hamda deputatlik korpusi ishini takomillashtirish. «Zarafshon». 2009 yil, 12-dekabr.

³ Yaxshilikov J.Ya. Fuqarolik jamiyati shakllanayapti Buni anglab etayapmizmi? Zarafshon gazetasi. 2013 y. 18-mart.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi: Kirish, 3 ta bob, 6 paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Xulosa qismida yuqoridagi boblar va paragraflarda ifodalangan fikrlardan kelib chiqqan xolda umumiy fikrlar xulosalanadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining hajmi 81 betni tashkil qildi.

I BOB. FUQAROLIK JAMIYATINI TAHLIL ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.

I.1. Fuqarolik jamiyatini o'rganishning metodologik asoslarining shakllanishi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'z oldiga erkin, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Mazkur maqsadga erishish jarayonida bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlarini, xususan, uning muhim bo'g'ini hisoblangan jamoat tashkilotlarini jamiyat hayotidagi o'rni va rolini mustahkamlash va oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Zero, islohotlar ko'p qirrali va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, unda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hamda olib borilayotgan islohotlarning sifati va samarasi ko'p jihatdan jamoatchilikning ishtirokiga bog'liq, shu jihatdan, uni shakllantirishda muayyan ijtimoiy institutlarga, xususan, jamoat tashkilotlariga muhim o'rin beriladi. Binobarin, samarali faoliyat yuritadigan jamoat tashkilotlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fuqarolik jamiyati institutlarini quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi tuzilmalar: xususiy mulk asosida vujudga keladigan va faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlari; ijara asosida ishlovchi jamoalar; hissadorlik jamiyatlari; moliyaviy jamg'arma hamda uyushmalar; ishlab chiqarish korporasiya, konsernlari va birlashmalari; tadbirkorlar uyushmalari (palatasi) va boshqalar.

2. Ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi tuzilmalar: oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar; ta'lim-tarbiya muassasalari (maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari); jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari; mustaqil OAV; diniy

tashkilotlar; milliy-madaniy markazlar; ixtiyoriy ko'ngilli jamiyatlar; jamoatchilik fikrini aniqlash va o'rganish institutlari; turli ijtimoiy ixtiloflarni adolatli hal etuvchi tuzilmalar va boshqalar.

3. Siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar: siyosiy partiyalar; ijtimoiy-siyosiy harakatlar; siyosiy muxolifatning mavjudligi; inson huquqlarini himoyalovchi institutlar va boshqalar. O'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- aholini turli ijtimoiy guruhlarini manfaatlarini ifoda etadi;
- fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda muhim omil sanaladi;
- ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning asosiy vositasi hisoblanadi;
- milliy o'zlikni anglashda, jamiyat a'zolarining siyosiy-huquqiy madaniyati va milliy dunyoqarashini yuksaltirishda, milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini joriy etishda ularning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;
- butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tadbiiq etishda ular davlatning teng huquqli ijtimoiy hamkori hisoblanadi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg'unligini qaror toptiradi va mustahkamlaydi.

Ma'lumki, har qanday tashkiliy tuzilmaning mohiyati, mazmuni va maqsadi u olib boradigan funksiyalar va faoliyat yo'nalishlarida ifodalanadi. Shu jumladan, jamoat tashkilotlarining funksiyalari ham ularning jamiyat hayotiga nisbatan muayyan faoliyatni amalga oshirishlari orqali ta'sir ko'rsatishlarida namoyon bo'ladi.

Jamoat tashkilotlarining demokratik islohotlarning samarasi va davomiyligini ta'minlash borasidagi faoliyatlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil etish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi, ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e'tirof etish joiz. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab quvvatlash va mustahkamlashda ko'rinadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonida siyosiy partiyalar muhim funksiyalarni amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalarning asosiy funksiyasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarning jamiyat uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlay olishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mavjud konstitusiyaviy huquq me'yorlari doirasida, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qilmagan holda shakllanib kelayotgan siyosiy jarayonlar va munosabatlar taomillari doirasida muqobil siyosiy yullarni ifoda etuvchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Umuman, har bir partiyaning o'z dasturi va maqsadlariga mos ravishda nazariy, mafkuraviy, siyosiy va tashkiliy funksiyalari bo'lib, ular partiya faoliyati va ichki hayotining ajralmas qismidir.

Uchinchidan, jamoat tashkilotlarining eng ommaviy shakllaridan biri hisoblangan kasaba uyushmalari jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadilar. Ta'kidlash joizki, ushbu institutning ijtimoiy jarayonlardagi ta'siri faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki undan ham kengroq doiraga qaratilgan³.

³ Муқимжон Қирғизбоев. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. Т.-«Ўзбекистон». 2010 й.56-бет.

Kasaba uyushmalarining ijtimoiy yo'naltirilgan funksiyalarining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jamiyatning integrasiyalashuviga erishish;
- ishlab chiqarish demokratiyasini rivojlantirish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- davlatning ijtimoiy sohadagi siyosatini shakllantirishga ko'maklashish;
- jamiyatning mehnat potentsiallarini saqlash va rivojlantirish;
- bozor munosabatlarini rivojlantirish, mehnat bozorini shakllantirish;
- jamiyatda inson qadr-qimmatini oshirish va mehnat odatlarini rivojlantirish.

Mamlakatimizda ijtimoiy voqyelikning jadal sur'atlarda rivojlanib borishi, jamiyatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar fuqarolik jamiyatining asosiy institutlarining yangi funksiyalarini shakllanishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqdalar. Jamoat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli xil manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda ishtiroklarini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat oldiga muayyan maqsad va vazifalarning qo'yilishi hamda yangidan-yangi muammolarning yuzaga kelishi o'z navbatida, jamoat tashkilotlari faoliyat yo'nalishlarining o'zgarib borishi, o'z-o'zidan uning o'zgacha mohiyat kasb etishiga olib keladi. Binobarin, jamoat tashkilotlari bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda

ularning funksiyalari doirasi kengayib borishi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'lishi obyektiv xususiyatga egadir.

Mamlakatimiz o'z oldiga bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. Konstitusiyamizning muqaddima qismidagi ushbu ustuvor g'oyaga inson huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida qaror toptirish borasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarimizning asosiy mezonini sifatida qaraladi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga mone'lik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlarini uning huquq va erkinliklari to'la darajada ruyobga chiqishiga yordamlashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi". Darhaqiqat, fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyatdir⁴.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan asosiy maqsad inson hayotini muhofaza qilish, uning maqsadlari, manfaatlarini, muayyan tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Fuqarolik jamiyatining mazkur institutlari, o'z navbatida, alohida shaxs uchun uning hokimiyat manbai ekanligini his qilishga hamda uning layoqati va harakati, obro'si jamiyatda yuksak qadriyat sifatida tan olinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi – fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan biridir. Binobarin, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq

⁴ Қаранг: Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. –Тошкент: Шарқ, 2002.й–.172 –б.

bo'lmashligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat nazorat funksiyalariga nisbatan jamoatchilik nazoratining afzal va muhim ekanligiga to'xtalib, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov, jumladan, shunday deb ta'kidlaydi: “Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q”⁵.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar barobarida davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga nisbatan aholining ishonchi muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, ushbu omil davlat va aholi o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning yuzaga kelishida muhim o'rin tutadi. Binobarin, bunday ijtimoiy hamkorlikni shakllantirishda quyidagi uchta jihatga alohida e'tibor qaratish lozim: hokimiyat organlari faoliyatining oshkora namoyon bo'lishi; davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish; fuqarolarni jamiyatdagi mavjud institusional nazorat tizimiga jalb qilish.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati, avvalambor jamoat tashkilotlari – siyosiy partiyalar, mahalliy o'z o'zini boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, iste'molchilarning uyushmalari va boshqalar faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Binobarin, hokimiyat organlarining jamoat tashkilotlari orqali xalq bilan muloqoti demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero hokimiyat organlari xalqqa o'z siyosati va xarakatlarini tushuntirishi, uning oldida xisob berishi lozim.

⁵ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003 й..28-29 б..

Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur institut insonning hukuq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor ahamiyatga egaligini ta'minlaydi va bunda jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyatning tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Jamoatchilik nazoratining mazmun va mohiyatini quyidagi yo'nalishlar asosida tavsiflash mumkin:

1. Hokimiyat organlari faoliyatining doimiy tizimli monitoringini olib borish. Bu shakl asosan o'tish davrida bo'lgan va ijtimoiy-siyosiy tuzum o'zgarayotgan davlatlarga xos bo'ladi.

2. Hokimiyat organlari faoliyatiga oid manzilli monitoring olib borish. Masalan, ekologik jamoat tashkilotlarini davlat hokimiyati organlarining ekologiya sohasidagi siyosatini nazorat qilishi.

3. Ijtimoiy muhim bo'lgan qarorlarni qabul qilishda jamoatchilikning ishtiroki.

4. Hokimiyat organlari huzurida nazorat komissiyalarining, jamoatchilik kengashlarining tashkil etilishi va boshqalar.

Fuqarolik jamiyati institutlari jamoat nazoratini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatlari orqali davlatga nisbatan o'ziga xos ta'sir kuchi yaratadilar. Bir so'z bilan aytganda, jamoat tashkilotlari siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga, davlat va jamiyat qurilishi masalalariga hamda qabul qilinishi nazarda tutilayotgan qonun loyihalari va hukumat karorlariga o'z munosabatlarini bildirishlari orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar.

Albatta, yuqoridagi masalalar eng avvalo, davlat hokimiyati organlari vakolatlari doirasiga kiradi. Shu bilan birga, jamoat tashkilotlarining ishtirokisiz davlat organlari o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini samarali va to'laqonli amalga oshirishlari qiyin. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari davlat bilan xalq

o'rtasidagi vositachi sifatida ijtimoiy muvozanatni yuzaga keltirish vazifasini o'taydilar. Bunday vositachilik, shubhasiz, har ikki tomon uchun ham foydalidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamoatchilik nazoratining ahamiyati, uni yanada samarali tashkil etish ko'p jihatdan nodavlat jamiyat tuzilmalari va uyushmalari, fuqarolik jamiyati institutlariga bog'liq ekanligi, buning uchun esa ana shu tuzilmalarning mustaqilligini amalda ta'minlash, ularning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish hamda faolligini oshirishga ko'maklashish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va huquqiy mexanizmlarini to'la ishlab chiqish o'ta dolzarb masala ekanligiga e'tibor qaratarkan, jumladan: “qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz “Adolat - qonun ustuvorligida” degan hayotiy tamoyilga qat'iy amal qilib yashashimiz zarur. Biz uchun bundan boshqa yo'l yo'q”, deb ta'kidlaydi⁶.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ham muayyan darajada taminlaydi.

Jamoat tashkilotlari orqali olib boriladigan jamoat nazoratining ahamiyatli tomonlari va xususiyatlari qo'yidagi tamoyillarda namoyon bo'ladi:

- jamiyat va shaxs manfaatlarining ustunligi;
- bunday jamoatchilik nazoratining keng qamrovliligi, ya'ni u ijtimoiy hayotning barcha jabhalari va sohalarida amalga oshirilishi;
- uning ommaviyligi, ya'ni har bir fuqaro va fuqarolar guruhlar uchun bunday nazoratda istisnosiz ishtirok eta olish imkoniyatining mavjudligi;

⁶ Қаранг: Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. –Тошкент: Ўзбекистон, 2003 й. .10-б.

– undagi oshkoralik, ya'ni uni amalga oshirish jarayoni ham, uning natijalari ham barcha uchun ochiq oydinligi va bu nazoratning ommaning nigohi hamda kuzatuvida amalga oshirilishi;

– nazoratni o'tkazishning ixtiyoriylik va beg'arazlilik asosida bo'lishi;

– uni amalga oshirish jarayonida davlat organlari, mansabdor shaxslar, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita aralashmaslik va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan besh mingdan ortiq jamoat tashkilotlari yuqoridagi huquqiy asoslarga tayangan holda ijtimoiy hayotning turli yo'nalishlari asosida muayyan darajada jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayoniga o'zlarining hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: “biz nohukumat va jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirishga katta e'tibor bermoqdamiz. Nodavlat va jamoat tuzilmalarining, birinchi navbatda demokratik qadriyatlar, odamlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari va huquq-tartibot idoralari faoliyati ustidan to'rachilik va korrupsiyaga qarshi kurashning samarali vositasi bo'lgan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdagi o'rni ortib borayotganini ko'rib turibmiz”⁷.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro yetmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini qonun hujjatida belgilab qo'yish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr kuni bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli ma'ruzasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro yetilishi

⁷ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003 й.. 87-б.

ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish taklifi ilgari surildi.

O‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini demokratlashtirish va erkinlashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonidagi keng ishtirokini ta‘minlash yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi hamda bu borada mukammal huquqiy asos yaratildi. Ayniqsa, ushbu institutlarning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitusiyaviy asoslariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ushbu tashkilotlarning turlari, faoliyat ko‘rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslardan mustaqilligi kabi tamoyillar mustahkamlab qo‘yildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 56-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e‘tirof etiladi”, deb belgilandi⁸.

Shuningdek, yuqoridagi konstitusiyaviy tamoyillar qator qonun hujjatlarida yanada rivojlantirildi. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi va boshqa bir qator qonunlar hamda O‘zbekiston

⁸ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009 й..11 б.

Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qonunosti hujjatlari shular jumlasidandir.

Mazkur huquqiy asoslarning yaratilishi nafaqat mamlakatimiz milliy qonunchilik tizimida jamoat tashkilotlarining faoliyatiga oid ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning mustaqil sohasini yuzaga kelishiga olib keldi, balki, unga tizimlilik tusini berdi. Yuqoridagilar bilan birga, jamoat tashkilotlarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalar o'z ichiga konstitusiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy huquq normalarini qamrab oluvchi butun qonunchilik tizimining shakllanishiga ham imkoniyat tug'dirdi.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi muhim o'rin tutadi. Konstitusiyaning ko'pgina moddalarida ushbu institutlar faoliyatiga oid bo'lgan konstitusiyaviy tamoyil va qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Konstitusiyaning 34-moddasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanligini e'tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hych kim kamsitishi mumkin emasligini belgilab qo'ygan. Asosiy Qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hych qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitusiyaviy tamoyil o'z ifodasini topgan.

Birlashishga bo'lgan konstitusiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assosiasiyalarga uyushishga bo'lgan huquq o'z ichiga: fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarining tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki undan chiqish huquqini qamrab oladi.

Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi. Bundan tashqari, Konstitusiyaning 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanliklari belgilab qo'yilgan.

Asosiy Qonunning 35-moddasida har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga binoan, "Konstitusiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyatini hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi"⁹.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi sifatida 1991 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunini ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy ta'rif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati prinsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo'yilgan

⁹ .Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2012 й. 40-б.

shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo'yildi¹⁰.

Ushbu qonunga mustaqillik yillarida kiritilgan bir qator o'zgartirishlar barobarida jamiyatda olib borilayotgan islohotlarga hamohang tarzda jamoat tashkilotlarining huquq va majburiyatlari doirasi ham kengayib bordi. Qonunga binoan, ular o'zlarining ichki tuzilmasini, maqsadi, faoliyat olib borish shakli va usullarini tanlashda hamda ustavlarini qabul qilishda mustaqil ekanliklari belgilab qo'yildi.

Jamoat tashkilotlari manfaatlariga daxldor bo'lgan masalalar davlat hokimiyati va mahalliy o'z o'zini boshqarish organlari tomonidan tegishli jamoat tashkilotlarini ishtiroki yoki kelishuvi asosida hal etiladigan bo'ldi. Shu bilan birga, davlat jamoat tashkilotlarining qonuniy manfaatlari va huquqlariga rioya etilishini ta'minlashi, ularning faoliyatiga har tomonlama ko'maklashishi, xususan, soliq va boshqa masalalarda imtiyozlar berishi lozimligi belgilab qo'yildi.

Mustaqil nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish hamda ularning mamlakatda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda va jamiyatni erkinlashtirishda faol ishtirok etishiga ko'malashish, ularni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish uchun mustaqil tizim va obyektiv sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, shuningdek, fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi tuzish haqila qo'shma Qaror qabul qildi.

Mazkur komissiyaning faoliyati "uchinchi sektor" deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga davlat byudjetidan ajratilgan moliyaviy mablag'larni yanada ochiq, oshkora, aniq yo'naltirilgan va eng muhimi, demokratik asosda taqsimlashni ta'minlash imkonini bermoqda. Bu esa nodavlat

¹⁰ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида"ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1991. –№4. –76-модда

notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Faqat keyingi uch yilning o'zida fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan 11 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabr kuni bo'lib o'tgan qo'shma yig'ilishidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy – huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunini qabul qilish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Mamlakatimiz ham ushbu jarayonlardan chetda qolmadi. Ziddiyatlar avj olgan sharoitda O'zbekiston rahbariyati respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos yo'llarini mustaqil tarzda belgilay boshladi. 1991 yil 19-21 avgust kunlari Moskvada davlat to'ntarishiga bo'lgan urinish natijasida boshboshdoqlik va parokandalikning avj olishi, markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora keskinlashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan tarixiy sharoitda O'zbekiston hukumati vaziyatni to'g'ri baholadi va O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari 6-sessiyasi o'z ishini boshladi. Bu sessiya mamlakatimiz mustaqilligi e'lon qilinishining qonunchilik asoslarini ishlab chiqdi va xalqimiz ozru qilgan – mustaqillikka erishildi. Bu tarixiy voqyea o'zbek xalqi tarixida yangi davr, milliy dunyoqarash, yangicha tafakkur tarzini shakllanishiga turtki bo'ldi.

Tabiiyki, o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlar jahon bozorida milliy mahsulotlarini raqobatbardoshligini ta'minlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch

keladilar. Millatchilik, diniy fanatizm, jamiyatning turli guruhleri va qatlamlari o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi kuzatiladi. Bularning barchasi yangi yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning barqarorligiga tahdid soladi. Ana shunday ziddiyatli va murakkab vaziyatda mamlakatimizni o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish, ularning foydali qismini o'zlashtirish bilan birga xalqning turmush tarzi va an'analariga murojaat qilindi.

Bizga ma'lumki, jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hamma mamlakatbop tamoyillari, barcha uchun tavsiya qilish mumkin bo'lgan tayyor andozalari bo'lmaydi. Shu sababli, respublika hukumati rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlash uchun jiddiy izlanishlar olib borib, avvalambor, mustaqillikning dastlabki yillaridagi jarayonlar tahlil qilindi va davlat qurilishi hamda iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida besh asosiy tamoyil ilgari surildi. Ushbu tamoyillarning to'rtinchisi qilib, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish belgilandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlagandek, «Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash islohotlarning barcha bosqichida asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bu islohotlarimizga asos qilib olingan besh tamoyildan biridir. Biz bundan keyin ham shu tamoyilga tayangan holda ish olib borishimiz kerak»¹¹. Darhaqiqat, kuchli ijtimoiy siyosatsiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishda fuqarolar orasida katta tafovut vujudga kelishi, mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan, imkoniyati cheklangan kishilar, ko'p bolali oilalar mushkul ahvolga tushib qolishi mumkin. Rivojlanishning besh asosiy tamoyilidan kelib chiqib, O'zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining bosh g'oyalari yaratildi. Bunda, birinchidan, inson qard-qimmatini kamsitmaydigan yashash sharoitini vujudga keltirish (yashash uchun eng zarur miqdor bilan ta'minlash), ikkinchidan, ijtimoiy adolat tamoyillarining tantanasi, uchinchidan, muhtojlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish g'oyalari muhim ahamiyat kasb etdi¹². Xullas,

¹¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 18 б.

¹² Государственное и административное устройство Германии. Ўзбекистон Республикасининг давлат ва маъмурий тузилиши. – Тошкент: Шарқ, 1996. – 65 с.

bozor munosabatlariga o'tishning muhim tamoyili sifatida kuchli ijtimoiy siyosat tanlandi va uning strategik vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

– Fuqarolar erkin iqtisodiy faoliyatini va tadbirkorligini, kasb tanlash va mehnat qilish sohasini tanlash erkinligi huquqini konstitusion kafolatlarini ta'minlash.

– Aholini ijtimoiy himoyalashning maqsadli va aniq manzilli xususiyati va turli tabaqalariga differensial yondashuv.

– Nisbatan zaif qatlamlar va guruhlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

– Mehnatni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini qo'llash, ijtimoiy soha tarmoqlarini isloh qilish.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, davlatning islohotchilik siyosati fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini himoya qila olishlari, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, jamiyatdagi ahvolidan qat'iy nazar qonun oldida hamma tengligini namoyon qilishlari, davlatni boshqarishda ishtirok etishlari, o'z fikrini erkin ifodalay olishlari uchun sharoitlar yaratish ishlariga qaratildi. Shu tariqa mamlakatda demokratiya uchun siyosiy asos yaratila boshlandi – hokimiyat vazifalarining taqsimlanishi olish tamoyili qaror topdi, qonun ustuvorligi o'rnatildi, qabul qilinajak qonunlarni umumxalq muhokamasidan o'tkazish tajribalari amalga oshirildi, ko'p partiyaviylik, yangicha demokratik saylov tizimi shakllandi. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamiyatning boshqa barcha qatlamlari bilan birga aholini 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar qatlami ham muhim rol' uynaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra,(2009 y. 1mart holatiga) O'zbekistonda 15 yoshgacha bo'lganlar 43 foizni, 18 yoshgacha bo'lganlar 50 foizni, 30 yoshgacha bo'lganlar 60 foizni tashkil etgan. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 17 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni tashkil etadi. Shuning uchun Rezident Islom Karimov Konstitutsiyamizning 15 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida: «Yoshlar nafaqat bizning tayanchimiz, ishonchimiz va kelajagimiz,

shu bilan birga bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir»¹³, deb ta`kidlaydi.

O`zbekistonda taraqqiy toptirish strategiyasida parlamentarizmni rivojlantirish muhim o`rin tuta boshladi.

O`zbekiston o`ziga xos mustaqil taraqqiyot yo`lini tanlab olgan davlat hisoblanadi. Bu yo`l jahonda «o`zbek modeli» deb tan olingan rivojlanish yo`lidir. Uning ratsional mag`zi jamiyatning inqilobi tarzida emas, balki evolyutsion – tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi. O`zbekiston taraqqiyot yo`lining ko`pchilik boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki keng ma`nodagi milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modelidir.

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, nafaqat iqtisodiy taraqqiyot masalalarini, balki milliy davlatchilik asoslarini, milliy qadriyatlarini, xalqning o`zligi va g`ururini qayta tiklash, rivojlantirish, jamiyat ijtimoiy tuzilmasini tubdan yangilanishi va mustaqillik g`oyalarini amalga oshirish uchun mutlaqo yangicha fikrlab, yangicha ish yuritadigan yoshlarni tarbiyalash kabi masalalarni ham hal etish lozim edi.

¹³ Ислом Каримов. Асосий мақсадимиз – юртимизда эркин ва обод, фаровон ҳаёт барпо этиш йўлини қатъият билан давом эттиришдир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 15 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. Халқ сўзи, 8 декабр. 2008 йил.

I.2.Fuqarolik jamiyatini tahlil etishning hozirgi zamon yondashuvlari.

Mustaqillik davrida jamiyat tizimidagi institutsional o'zgarishlar O'zbekiston sobiq ittifoq davrida ham milliy, ham yakkahokim mafkura zulmi ostida yashadi. Kommunistik mafkura o'z tabiatiga binoan totalitar ruhdagi mafkura bo'lib, u asosan hayotning barcha jabhalarini egallashga, har bir insonning shaxsiy hayotini ham butunlay nazorat qilishga da'vogar edi. Totalitar mafkura o'z tabiati va xarakteridan kelib chiqib "buyuk kelajak" uchun o'tmishni ham, boshqa har qanday mafkuralarni ham inkor etgan edi.

Kommunizm g'oyasi nafaqat o'tmishdagi qadriyatlarni yo'q qilishga, balki o'ziga xos yangi qadriyatlar joriy qilishga da'vat etdi. Kommunizm g'oyasiga asoslangan kommunistik partiya zo'rlik bilan, kuch ishlatish vositasida, majburlash yo'li bilan totalitar jamiyatni qurishga ham erishdi.

Rus olimi M. Voslenskiy sobiq ittifoq davrida hukm surgan totalitarizmning bosh belgisining xarakterli xususiyati to'g'risida quyidagi fikrni bildiradi: "Bu jamiyatda yangi hukmron sinfning shakllanishi, nomenklatura, ya'ni siyosiy byurokratiyaning ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi hokimiyatni monopoliya qilib oldi. Bu sinf nafaqat o'z tuzilmalari va imtiyozlarini yashirin saqlashga intildi, balki o'zining mavjudligini ham sir saqlashga urinar edi. Nomenklaturaning tashqi belgisiga esa yangi tipdagi partiyaning tuzilganligi misol bo'la oladi: nomenklaturaning o'zagi ana shu partiyaning siyosiy apparati shaklida namoyon bo'lar edi"¹⁴.

Jamiyatning barcha sohasidagi hokimiyat bugunlay partiyaga tegishli bo'lib, kommunistik partiya va davlat apparati bir-biri bilan chirmashib va qo'shib ketgan edi. Shuningdek, jamiyatni davlatlashtirish darajasi ham o'zining eng yuksak cho'qqisiga chiqib, davlatdan mustaqil bo'lgan ijtimoiy hayot va jamiyatning demokratik institutlari butunlay yo'q qilindi: kommunistik partiyadan boshqa barcha partiyalar tor-mor qilindi, barcha jamoat tashkilotlari va nodavlat

¹⁴ Восленский М. Феодалный социализм. Место номенклатуры в истории. –М.: Новый мир. 1991.191-бет.

birliklar hukmron partiyaga bo'ysundirildi. Huquq va qonunlarning jamiyatdagi o'zni pasayib, kommunistik partiya qonun bilan cheklanmagan va qonunga bo'ysunmagan cheksiz vakolatlarga ega bo'ldi. Partiya apparati iqtisodiyotning barcha sohalarini monopoliya qilib olgan holda ma'muriy buyruqbozlik usulida rahbarlik qila boshladi. Shuningdek, kommunistik partiya barcha ommaviy axborot vositalarini ham bugunlay monopoliya qilib olgan edi. Ana shunday sharoitlarda butun bir ulkan siyosiy tizimni saqlash zo'rlik va kuch ishlatishsiz amalga oshishi qiyin edi. Kommunistik partiya shaxs hayoti, oila, din, san'at, fan, madaniy an'analar kabi ijtimoiy hayot sohalarini ham o'z nazorati ostiga olib, bu sohalaridagi qadriyat va me'yorlarni belgilab berishga ham da'vogarlik qila boshladi.

Jamiyat a'zolarining erkin fikrlash, mehnat qilish va o'z shaxsini intellektual va ma'naviy jihatlardan yuksaltirish, yaratuvchilik ijodiy qobiliyatini takomillash-tirish kabi sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari totalitar rejim tomonidan siqib qo'yilganligi uchun ham sobiq sho'ro jamiyati o'zini o'zi rivojlantirish va yangilash imkoniyatlaridan deyarli mahrum bo'lgan edi. Shuning uchun ham bu jamiyat tez o'zgarayotgan dunyoga nisbatan moslasha olmadi. Kommunistik partiya va davlatning ishlab chiqarish va moddiy-ma'naviy boyliklarni taqsimlashdagi o'rnining beqiyosligi, ularning xususiy mulkchilik va bozor raqobatchiligini taqiqlash siyosati, shuningdek, ortiqcha ijtimoiy differentsiatsiyaga yo'l qo'ymasligi oqibatlarida jamiyat va davlat rivojlanishidagi barcha maqsadlar majburlash vositalarida amalga oshirila boshlandi. Boshqacha aytganda, boshqaruv noiqtisodiy usullarda, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini hech bir hisobga olmagan holda amalga oshirildi. SHuning uchun ham jamiyatda demokratiya unsurlarining shunchaki bir yashashi uchun biron-bir imkoniyat ham yo'q edi.

Davlat hokimiyatining barcha jabhasi faqat kommunistik partiyaga tegishli edi. Bu holatni tanikdi siesatshunos Xanna Arendt o'zining "Totalitarizm virusi" nomli asarida quyidagicha ifodalaydi: "Partiya doimo jamiyatning tizilmalashuvi bilan bog'liq bo'lib, uning ma'lum qatlamlari manfaatlarini ifoda etdi. Olomon

uchun tizilmaviylikning etishmasligi yangi tipdagi partiyaga bo'lgan zaruriyatni shakllantirdi. Butun bir jamiyat manfaatlarini ifoda etishga da'vogarlik qilayotgan partiya fuqarolik jamiyatini olomon guruhlarga aylantirdi, partiyaning o'zi esa partiyaviy-byurokratik davlat tizimiga o'sib o'tdi"¹⁵.

Mamlakatda yakkahokim partiya va mafkuraning tazyiqi oqibatlarida shaxsning erkin fikrlashi, o'z atrofidagi voqelikni erkin va halol tahlil etishi, o'z tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatini to'liq namoyon qilishi, shuningdek, o'zi xohlagan tarzda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi uchun hech bir shartsharoitlar qolmagan edi. SHuning uchun ham jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy passivlik va boqimandalik kayfiyatlari mislsiz tarzda kuchaydi.

Rus olimi A.A. Kara Murza sobiq sovet davridagi partiyaning hukmron mavqeini quyidagicha ifodalaydi: "Partiyaga uning safidan chiqarish imkoniyati mavjud bo'lganligi uchun ham qabul qiladilar. Mamlakatdagi barcha lavozimlarga partiya a'zolari boshqalardan iste'dodli, a'lo, adolatli bo'lganliklari uchun emas, balki ular nisbatan ko'proq itoatgo'y bo'lganliklari uchun qo'yiladilar - ularni salgina itoatsizliklari uchun hech bir sudsiz qatl etish yoki qamoqqa tiqish mumkin. Partiya va hokimiyatning kuchi partiyaviy "ta'sir"ning (shunday ataganlar) hamma erda mavjud bo'lganligidadir. Partiyadan haydalgan odam bepoyon mamlakatning biron-bir burchagida ham tazyiqtsan panohtopish uchun joy topa olmas edi"¹⁶.

Partiya va sovet davlatining baravarlash tirish siyosati kishilardagi shaxsiy tashabbus, ijodiy fikrlash, siyosiy yoki ishlab chiqarishdagi muammolarni mustaqil tarzda echish kabi qobiliyatlarining rivojlanishiga imkon bermadi.

Sobiq kommunistik partiya "qardosh respublikalar" kompartiyalariga nisbatan ham imperiyachilik va totalitar usullar vositasidagi boshqaruvni qo'lladi. Masalan, ittifoq respublikalari kompartiyalarining nizomiy-huquqiy maqomi RSFSR viloyatlari va o'lkalari partiya tashkilotlari bilan bir xilda belgilangan edi. Lekin, amalda Rossiyadagi shahar va viloyatlar partiya tashkilotlarining siyosiy

¹⁵ Арендт Х. Вирус тоталитаризма // Изучая прошлое во имя будущего (круглый стол). — Политические исследования, №6, 1991. 165— 166-бетлар.

¹⁶ Кара Мурза А.А. Тоталитаризм — феномен XX в. // Тоталитаризм как исторический феномен. — М., 1989. 23-бет.

maqomi darajasi respublikalar kompartiyalaridan yuqori edi. Masalan, Moskva va Leningrad shaharlari partiya tashkilotlarining ierarxiya darajasi KPSS Markaziy Qo'mitasi bilan respublikalar kompartiyalari o'rtasidagi pog'onada belgilangan edi (mazkur partiya tashkilotlarining birinchi kotiblari KPSS Markaziy Qo'mitasi siyosiy byurosi a'zosi etib tayinlanardi).

Respublikalar kompartiyalari o'rtasida ham o'zaro tenglik yo'q edi. Bunda ham ularning rahbarlarini slavyan xalqlarining vakili ekanligi yoki bosh kotibga qanchalar yaqinligiga e'tibor berilar edi: XX asrning 60 - 90-yillarida Ukraina, Belorusiya va Qozog'iston kompartiyalari markaziy qo'mitasi birinchi kotiblari partiya markaziy qo'mitasi siyosiy byurosi a'zosi yoki unga nomzod bo'lishi qoidaga kirdi (keyingi davrlarda O'zbekiston kompartiyasi markaziy Qo'mitasi birinchi kotibining siyosiy byuro a'ziligiga nomzod sifatida kirishi ham odat tusini oldi). Lekin qolgan respublikalar kompartiyalari rahbarlari oliy elita - siyosiy byuro - tarkibiga kiritilmas, ularga faqat markaziy qo'mita a'zosi bo'lishdek quyiroq partiyaviy pog'onadan joy ajratilar edi.

KPSS ittifoqdosh respublikalar kompartiyalarini mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishning asosiy vositasiga aylantirgan edi. SSSR konstitutsiyasining 6-moddasida KPSSning "sovet jamiyatining yadrosi va uni yo'naltirib turuvchi" kuch ekanligi qonunlashtirilganligiga e'tibor berilsa, partiyaning totalitar jamiyatni zo'rlik va zulm vositasida bir maromda ishlashini ta'minlashga qaratilgan asosiy siyosiy hokimiyat ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Ittifoqdosh respublikalarni markaz tomonidan itoatda ushlab turishning yana bir shakli, bu - respublikalar markaziy, viloyat, tuman va shahar partiya tashkiloti qo'mitalari ikkinchi kotiblarining asosan rus va slavyan millati vakillaridan qo'yilishidir. Ikkinchi kotiblar tuman, shahar, viloyat va respublikadagi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga rahbar kadrlarni tanlab qo'yish yoki ularni lavozimlaridan bo'shatish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalalariga bosh mutasaddi edilar. Shuningdek, ikkinchi kotiblar partiyaning barcha kadrlar va tashkiliy ishlari - partiyaga qabul qilish yoki undan chiqarish, partiya rahbar organlarining majlislari, byuro plenumlari, konferentsiyalari, qurultoylarini,

shuningdek, partiya organlari saylovlarini o'tkazishni amalga oshirish faoliyatiga boshchilik qilar, shu bilan birga, bu sohalarni o'zining qattiq nazorati ostiga olgan edilar.

KPSS kelajakda "farovon hayot" qurish kabi xayoliy jozibador aqidalar bilan o'z shaklini qanchalik bezamasin, uning asosiy maqsadi totalitar jamiyatni, shuningdek, amalda rus bo'lmagan xalkdarni markazning mustamlakachilik siyosati ostida zo'rlik bilan ushlab turishni ta'minlab turuvchi mukammal imperiyachilikni amalga oshirish edi. Faylasuf N.A. Berdyaev 1940 yilda shunday deb yozgan edi: "Sovet Rossiyasiga bo'lgan munosabatlarimda biron-bir muhim o'zgarishlar bo'lmadi. Men Sovet hokimiyatini birdan-bir rus milliy hokimiyati, deb hisobladim. Bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. U faqat Rossiyaning xalqaro munosabatlardagi vakilidir"¹⁷.

KPSSning birgina O'zbekistonga nisbatan munosabati, shuningdek, bu erda olib borgan siyosatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, sobiq partiyaning imperiyachilik siyosati rus podsholarining mustamlaka o'lkalarda olib borgan siyosatiga nisbatan ham o'ta ayanchli va o'ta dahshatli tarzda amalga oshirilgan.

Kommunistik partiya tomonidan O'zbekiston ulkan mamlakatning paxta xom ashyosini etkazib beruvchi bazasiga aylantirildi. Etishtirilgan paxta hosiliga markaz egalik qila boshladi. Respublikaning xom ashyo o'lkasiga aylantirilishi uning afar mintaqa bo'lishini taqozo etdi. Oqibatda respublika iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida boshqa ittifoqdosh respublikalardan bir necha marta orqada qolib ketdi. Markazning ko'zga ko'rinmas, niqoblangan mustamlakachilik siyosati partiya faoliyatining barcha sohalarida sezilar edi.

Deyarli barcha ekin maydonlarini paxtaga moslashtirish, muttasil bir xil ekin ekilishidan charchagan dalalarga tobora ko'proq kimyoviy va zaharli o'g'itlar solish misli ko'rilmagan darajada avj oldi. Buning natijasida havo, suv, oziq-ovqat, meva va poliz mahsulotlarining zararlanishi inson salomatligiga xavf solib, ko'plab yangidan-yangi kasalliklarni keltirib chiqardi. Bolalar o'limi nihoyatda ko'paydi. Suvdan istiqbolsiz, o'rinsiz foydalanish Orol fojiasini keltirib chiqardi.

¹⁷ Бердяев Н.А. Самопознание. (Опыт философской автобиографии). - М.: Книга, 1991. 340-бет.

Turg'unlik davrida ham ana shu eski siyosat madaniyroq va puxta niqoblangan ravishda davom etdi. Ittifoqning Evropa qismida to'xtovsiz ravishda kuchayib borayotgan xom-ashyoga bo'lgan talabni qondirish maqsadida O'zbekistonda paxta etishtirishning eng oxirgi imkoniyatlari ham ishga solindi. Natijada ekologik holat yanada yomonlashdi, paxtakor mehnati juda og'irlashdi. Xalqning turmush kechirish darajasi qiyinlashib, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar yanada keskinlashdi.

Qayta qurish davrida qisman berilgan demokratik erkinliklar, oshkoralik, xalqni o'zini o'zi boshqarish kafolatlari xalq ahvolini tubdan yaxshilay olmadi. Chunki, boshqarish, ishlab chiqarish va mulkchilikning eski usullari bekor qilinib, yangisi barpo qilinmaganligi, ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar buzilganligi, markazning yana yakkahokimlik qilish siyosatidan qaytmaganligi, o'zaro ichki siyosiy kurashlar, RSFSR bilan ittifoq va uning tuzilmalari o'rtasidagi hokimiyat uchun o'zaro kurashlar va uning iqtisodiy oqibatlarini xalqning moddiy ahvolini keskin yomonlashtirdi. Xalq iste'mol mollari, oziq-ovqat mahsulotlari taqchilligi kuchayib bordi. Narx-navo ham to'xtovsiz oshib bordi.

1989 yilda Prezident Islom Karimov respublika rahbari bo'lgan davrda mamlakat siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ana shunday og'ir vaziyat va bo'hronlar mavjud edi. Bir tomondan, markazning ittifoqni saqlab qolish umididagi tazyiqlari, ikkinchi tomondan, o'zini muxolifatchi deb atagan turli guruh va oqimlar boshliqlarining xurujlari respublika hukumati barqaror siyosat olib borishini xavf ostiga qo'ydi. Ana shu davrdagi vaziyatda, markaz bilan respublika o'rtasidagi kuchlar nisbatidan kelib chiqib, Islom Karimov milliy mustaqillik uchun harakatni dastlab O'zbekiston kompartiyasining KPSSdan mustaqil bo'lishi uchun kurashdan boshladi. Chunki, o'sha davrdagi markazda barcha siyosiy hokimiyatni o'ziga monopoliya qilib olgan KPSSdan boshqa qudratli kuch yo'q edi. KPSS O'zbekistonning milliy mustaqil davlat bo'lishiga asosiy to'siq bo'lmoqda edi. O'sha davrda "KPSSdan mustaqil bo'lish", degan so'z milliy mustaqillikka erishish va mustaqil davlat bo'lish ma'nosini berar edi.

Ana shunday qiyinchiliklar davrida markazdagi oliy hokimiyat - KPSS rahbarlaridan bir guruhining 1991 yil 19-21 avgust kunlari davlat to'ntarishi qilishga urinishlari va uning oqibatlari shuni ko'rsatdiki, endi O'zbekiston markazning vassali bo'lib qola olmaydi. Markazda g'alaba qilgan siyosiy kuchlarning ba'zi bir harakatlari, ittifoqning boshqarish tizimlarini boshqa respublikalar bilan hech bir kelishmay turib ishg'ol qilishga urinishlar, KPSS oliy rahbariyati bir qismining davlat to'ntarishida ishtirok etishi, KPSS faoliyatini rasman to'xtatib qo'yilishi kabi voqealar O'zbekistonni ittifoq tarkibida rivojlanishini shubha ostiga qo'ygan edi¹⁸.

Ana shunday qiyin, tahlikali va murakkab sharoitlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi e'lon qilindi, shu bilan birga, Prezident Islom Karimov O'zbekiston kompartiyasini tugatish yo'lini tutdi. Albatga, Prezident I.A. Karimovning bunday qarorga kelishining mantiqiy sabablari bor edi: partiya etmish yildan ortiqroq O'zbekistonni istibdodda ushlab turdi; ana shu davrda totalitar jamiyat qurish g'oyasi va mafkurasi ham partiya tomonidan ishlab chiqildi, bunday jamiyat qurish amaliyoti ham partiya tomonidan hayotga tatbiq etildi; partiya doimiy va muntazam ravishda o'zbek xalqining mustaqilligiga, milliy, ma'naviy, madaniy merosiga, milliy tarixi va an'analariga qarshi keskin siyosat o'tkazib keldi; partiya qandaydir "tenglik" jamiyatini targ'ibot-tashviqot qilgani bilan amadda va yashirin ravishda markazning O'zbekistonga nisbatan imperiyachilik siyosatini o'tkazib keldi; partiya o'z tabiati va g'oyasidan kelib chiqib har qanday demokratik qadriyatlar va fuqarolik jamiyati shakllanishiga qarshi tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatib keldi; partiya jahonda kommunistik jamiyat qurish maqsadidan kelib chi-qib, hech qachon O'zbekistonni milliy mustaqil davlat bo'lishiga yo'l bermasligi aniq edi; Prezident Islom Karimov maqsad qilib qo'ygan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish g'oyasi partiya g'oyasiga butunlay to'g'ri kelmasdi; kommunistik partiyaning manfaatlari ham butunlay milliy manfaatlarga qarama-qarshi ruhda edi.

¹⁸ Каранг: Киргизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар. мафкуралар. маданиятлар. — Т.: Шарқ, 1998. 110—111-бетлар.

Umuman, XX asrning 90-yillari boshidagi O'zbekiston uchun "kommunistik partiyadan xalos bo'lish", degan so'z milliy mustaqillikka erishishning asosiy sharti bo'lib qolgan edi. Shuning uchun ham 1991 yil 14 sentyabrda O'zbekiston Kompartiyasining XXIII navbatdan tashqari s'ezdi cha-qirilib, unda respublika partiya tashkiloti o'zini o'zi tugatishga qaror qildi.

Lekin bu jarayonlar ham silliq kechgani yo'q. Bu paytda hali ko'plab rahbarlar, partiya a'zolarining aksariyat qismida eski jamiyatning kuchli ta'siri sezilib turmoqda edi. Ular milliy mustaqillik g'oyasini anglashga etilmagan, yangi demokratik jamiyat qurishni esa o'z tasavvurlarida kapitalizmga - "eng yomon jamiyatga qaytish", deb tushunar va talqin etar edilar. SHuning uchun ham partiya qurultoyi qarori bilan yangi partiya tuzish, bu partiya kompartiyaning mulklarini meros qilib qoldirish, kompartiya a'zolarining esa yangi partiya bevosita va to'g'ridan-to'g'ri kirishi mumkinligi, bunda kommunistlarni oldingi partiya stajlari saqlanishi to'g'risida bayonot berildi. Bu, albatta, Yo'l boshchi tomonidan ishlab chiqilgan eski partiyani tugatish yo'lidagi strategik maqsadlardan kelib chiqib, partiyani tadrijiy yo'l bilan tugatish edi. Bundan eng asosiy maqsad - jamiyat birligini saqlash, uni boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi o'zaro qarama-qarshi bo'lgan "kommunistlar" va "demokratlar"ga bo'linmaslik chora-tadbirlarini ko'rish edi. Umuman, O'zbekistonda kompartiyani Milliy mustaqillik arafasidayoq tugatishga erishildi. Boshqa sobiq ittifoq davlatlarida esa ahvol boshqacha edi.

MDHning aksariyat mamlakatlaridagi kommunistik partiyalar o'tgan asrning 90-yillari davomida parlamentga, mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlariga bo'lgan saylovlarda yirik g'alabalarga erishib keldilar. Jumladan, Rossiya kommunistik partiyasi to 2001 yil-ning aprel' oyigacha Davlat Dumasida ustuvorlik qilib keldi. Bu haqda Rossiya Federatsiyasining sobiq Prezidenti B. El'tsin shunday deb yozgan edi: "Prem'er CHernomirdin partiyasi ham 1993 yildagi Gaydar partiyasi kabi parlamentda ozchilikni tashkil etdi. Bu holat hokimiyat obro'si uchun ham, iqtisodiyot uchun ham, fuqarolik jamiyatining barcha tizimi uchun ham yaxshi emas edi. Barcha o'tgan yillarda biz siyosiy muloqotlar o'rniga qizil Duma bilan Prezident o'rtasidagi shiddatli kurashlarga ega

bo'ldik.... O'tgan davrga qarab o'ylanib qolaman, o'sha kunlardagi bu muvaffaqiyatsizliklarda aniq bir lider yoki shakllangan siyosiy holatlar aybdor emas edi. Aniqrog'i, faqat bugina emas. Lekin, masala menda va mening Dumaga bo'lgan munosabatimda edi. Men nazariy jihatdan shuni tushunar edimki, parlament demokratiyaning muhim instrumenti hisoblanadi. Ammo amalda esa o'sha Gorbachevning 1989 yildagi xalq deputatlari s'ezdidan boshlab barcha oxiri ko'rinmas majlislarda men o'zinning yonimda muttasil ravishda islohotlar va o'zgarishlarga nisbatan o'z nafratini yashirmagan (hech bo'lmasa odob yuzasidan) kommunistlarga ko'zim tushar, yana o'sha dilga og'riq beruvchi tanish basharalarni ko'rardim"¹⁹.

Umuman, Milliy mustaqillikning dastlabki davrida sobiq totalitar jamiyat qoldirgan meros mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotining barcha sohalarini o'ziga qamrab olgan edi. Mamlakatda, hattoki, fuqarolik jamiyatining unsurlari ham hali shakllanmaganligi, bu sohada tajribalarning etishmasligi, demokratik qadriyatlar xalq mentalitetiga singmaganligi, yangi jamiyatning iqtisodiy asoslari shakllanmaganligi kabi yuzlab dolzarb muammolar o'z echimini kutmoqda edi.

1990 yil 24 martda O'zbekiston Oliy Kengashi I.A. Karimovni respublikaning birinchi Prezidenti etib saylashi - milliy mustaqillik sari boshlangan harakatning ilk g'alabasi edi. Chunki, bunday siyosiy institutning kiritilishi markaz va ittifoqdagi boshqa respublikalar uchun kutilmagan yangilik edi.

Mustaqillik uchun harakat yanada keng ko'lamda davom etdi. Oliy Kengash 1990 yil 21 iyulda Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qildi. Mazkur Deklaratsiya respublikamizda milliy mustaqil davlat o'rnatilishi jarayoni uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, 1991 yil avgust oyida respublikada mahalliy davlat organlarida hokimlik lavozimlarining ta'sis etilishi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda milliy ruhiyatga yaqin boshqaruv tizimlarini tuzilishi kabi voqeliklarning ro'y berishi O'zbekiston rahbariyatining milliy istiqlol sari hech bir ikkilanishsiz,

¹⁹ Ельцин Б.Н. Президентский марафон. Размышления, воспоминания, впечатления. - М.: 2000 «Издательство АСТ», 2000. 385-бет

dadil harakat qilayotganligining samarasi edi. O'sha davrdagi kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, oqibatda aholining ijtimoiy barqarorligini ta'minlash yo'li ham faqat O'zbekiston uchun xos edi.

O'zbekiston hali ittifoq tarkibida bo'la turib, boshqa respublikalar rahbarlari o'z mamlakatlarini konfederativ ittifoqqa kirishiga ko'z tutib turgan bir paytda, Prezident I.A. Karimov 1991 yil 31 avgustda Oliy Kengash sessiyasi minbaridan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qildi. Shu kuni Oliy Kengash "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonoti"ni e'lon qildi.

O'zbekistonda Milliy mustaqillik uchun harakat bir tomondan kommunistik totalitar tuzum asoratlaridan xalos bo'lish, poklanish jarayonlari bilan uyg'un ravishda kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jahondagi ilg'or mamlakatlar tajribasi asosidagi mahalliy xalq mentalitetidan kelib chiqib jamiyatni demokratlashtirish bilan hamo-hang bordi. Milliy mustaqillik arafasidayoq ko'ppartiyaviylik tizimini joriy etish, davlat va hukumatdan ayrim jamoat birlashmalari tuzulmalarining erkin faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratishga intilish respublika rahbariyatining XX asrning 90-yillari boshidagi strategik siyosiy islohotlarining bosh maqsadlaridan biri edi.

Sobiq ittifoqda M.S. Gorbachyov boshchiligida e'lon qilingan "qayta qurish" siyosati natijasida ko'plab turli-tuman ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifoda etuvchi jamoat birlashmalari paydo bo'ldi. Jumladan, 1989 yil 28 mayda O'zbekistonda ham "Birlik" xalq harakati jamoat tashkiloti sifatida tashkil topdi.

Bu harakat mamlakatda qayta qurish davrida tuzilgan ilk jamoat tashkilotlaridan biri bo'lganligi sababli ham ko'plab xatoliklar va kamchiliklardan holi bo'lmadi. Harakat ko'p holatlarda jamoat tashkiloti sifatida tashkil etilgan va davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lsada, u siyosiy partiyaga xos faoliyat yurita boshladi. Harakatning dasturi ham uning a'zolarini siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga kengroq jalb qilishga qaratilgan edi. Harakat dasturidagi quyidagi jumlar fikrimizning dalilidir: "...O'zbekiston kelajagi uchun buyuk tarixiy mas'uliyatni o'z bo'yniga olishga qurbi etadigan tashkilotlarning shakllanishini tezlash-tirish

ob`ektiv zaruriyatdir. "Birlik" harakati o`zi yoki boshqa demokratik kuchlar bilan birga shunday mas`uliyatni o`z zimmasiga olishga tayyor ekanligini bayon qiladi"²⁰.

"Birlik" harakati rahbariyatining nazariy qarashlari, ijtimoiy-siyosiy faoliyati eski tuzum bag`rida shakllanganligi, ishning tajribalarini markaz va Boltiqbo`yi respublikalari siyosiy hayotidan "nusxa ko`chirish" bilan cheklaganligi uchun ham harakatning faoliyati o`ta so`l va radikal bo`ldi. Harakat o`z nizomida eski bol`shevistik "Butun hokimiyat - Sovetlarga!" shiorini to`la amalga oshirish"ni maqsad qilib qo`yganligi fikrimizning dalilidir.

Harakatning eng asosiy xatolaridan biri, bu - ular tomonidan xalqimizning, millatning tub manfaatlarini anglamasliklari, eski tuzum parchalanishi oqibatida paydo bo`lgan turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar irodasini o`zida ifodalay olmaganligi, shuningdek, o`zbek xalqi-ning mentaliteti, milliy xususiyatlarini chuqur o`rganmay turib keng ko`lamda harakat qilishga intilgan urinish edi. Shuning uchun ham "Birlik" harakati xalq ichida o`z ijtimoiy ildiziga ega bo`la olmadi.

"Birlik" harakati faollarining bir guruhi siyosiy partiya tuzish uchun harakat boshladilar. 1990 yil 30 aprelda "Erk" demokratik partiyasining ta`sis qurultoyida uning dastur va nizomi qabul qilindi. "Erk" partiyasining dasturi, asosan, ittifoq parchalanganidan keyingi siyosiy-ijtimoiy muhitda inqilobiy o`zgarishlar qilishga qaratilgan bo`lib, unda eski jamiyatda yashagan o`zbek xalqining ruhiyati, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda o`zgarib borish jarayonlari hisobga olinmagan edi²¹.

"Erk" partiyasi jamiyatdagi biron-bir ijtimoiy qatlam partiyasi sifatida emas, balki tor doiradagi guruhlar partiyasi sifatida faoliyat olib borishga uringanligi uchun ham radikal va o`ta qutblashgan tashkilot bo`lib qolaverdi. Qolaversa, partiya o`tmish merosi, jamiyatning ijtimoiy holati, o`tish davridagi murakkab siyosiy jarayonlar va to`g`shanib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqur

²⁰ Ўзбекистон «Бирлик» халқ ҳаракати. Дастур ва низом. — Т.: 1990. 5—6-бетлар.

²¹ Қаранг: Киргизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, маданиятлар. — Т.: Шарқ, 1998. 116—117-бетлар.

anglash uchun etarli tajribaga ega bo'lmaganligi uchun ham 1993 yil oxiridan boshlab rasmiy ravishdagi o'z faoliyatini to'xtatdi.

O'tgan asrning 90-yillari ikkinchi yarmiga kelib ham MDH mamlakatlarida, xususan Rossiyada kommunistlar va boshqa "so'l" kuchlarning parlament hamda davlat hokimiyatining boshqa tuzilmalarida kuchli siyosiy ta'sir kuchiga ega bo'lishining sabablari ko'p jihatlardan so'l kuchlarga nisbatan o'ta qutblashgan siyosat yuritilganligi, qolaver-sa, jamiyatning hali eski mafkura ta'sirida bo'lgan millionlab fuqarolarining yangi hukumat organlari va demokratlar tomonidan kuchli mafkuraviy tazyiqqa uchraganligi oqibati edi.

O'zbekistonda Milliy mustaqillik arafasida jamiyat siyosiy sohasidagi o'zgarishlar mamlakatning konstitutsiyaviy tizimida tub islohotlar qilishga zaruriyat sezmoqda edi. Yangi jamiyat va davlat qurish islohotlarini amalga oshirishning muhim kafolati ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishish, bu jarayonlarda turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar ham-jihatligini ta'minlash uchun demokratik qadriyatlar asosi-dagi huquqiy asoslarni shakllantirish masalalari mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Sobiq ittifoq davridan meros bo'lib qolgan xukuqiy asoslar mamlakatdagi yangi intilishlar va islohotlar jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, kelajak strategik maqsadlarni belgilashga to'siq bo'layotgan edi.

Umuman, milliy mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston jamiyatining barcha sohalarida chuqur institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi: eski yakkapartiyaviy davlatga barham berilib, demokratik tamoyillar asosidagi milliy davlat shakllandi; jamiyatda ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi; partiya va davlatdan xoli bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi shakllandi; barcha qonunlarni demokratik tamoyillar asosida qabul qilish tajribasi shakllandi. Natijada mamlakatda fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratildi.

II BOB. FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

II.1. «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilining mazmun-mohiyati.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VIII sessiyasida o'z ma`ruzasida fuqarolik jamiyati qurishning yangi bosqichi va tamoyillarini ilgari surdi: "Bizning oldimizda turgan yana bir muhim va dolzarb vazifa u ham bo'lsa, "Kuchli davlatdan - kuchli jamiyatga o'tish" degan shiorni amalda ro'bga chiqarishdir. Bu maqsadga erishish uchun, birinchidan, davlatimizning markaziy va yuqori boshqaruv organlari vakolatlarini bosqichma-bosqich quyi tizimga, shu jumladan, o'zini o'zi boshqarish tuzilmalariga o'tkazish talab qilinadi. Bular qatorida biz, birinchi navbatda, o'zini har tomonlama oqlagan mahalla tuzilmasini ko'zda tutamiz. Ikkinchidan - jamiyatimizda nodavlat, jamoat tashkilotlarining, avvalo fuqarolik institutlarining ri-vojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish va ularning faolligini oshirishga ko'mak va yordam ko'rsatish darkor"²².

Darhaqiqat, "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilidan kelib chiqib ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VIII sessiyasida qabul qilingan "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun kelgusida qabul qilinishi zarur bo'lgan o'zgarishlar jarayonini o'zida mujassam etadigan yangi qonunlarning qabul qilinishi uchun printsiptial qoidalarni belgilab berishi ko'zda tutilgan edi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan demokratik siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari, uning demokratik tamoyillarini rivojlantirish masalalari Prezident I.A. Karimovning birinchi va ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sessiyalaridagi (1995 - 2004 yillar), shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (2005, 28 yanvar') ma`ruzalari "Kuchli

²² И.А. Каримов. Янгилашиш ва ўзгаришлар жараёни ортга қайтмайди. // Хавфсизлик ва тинчлик учун қурашмоқ керак. Т. 10. - Т.: Ўзбекистон, 2002. 325-бет.

davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" kontseptual siyosiy dasturning asosini tashkil etdi.

Prezident I.A Karimovning asarlarida adolatli demokratik jamiyat kurishning kontseptual nazariy asoslari yanada boyitildi. Prezidentning quyidagi fikri mamlakatda fuqarolik jamiyati barpo etishning eng asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi: "Hammamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim... Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li - markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir"²³.

Mamlakatda "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilidan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati qurish maqsadlarida davlat hokimiyatining aksariyat vakolatlarini mahalliy hokimiyat organlari va o'zini o'zi boshqarish organlariga berish jarayonlari boshlandi. Markaziy davlat hokimiyati tasarrufida esa, asosan, faqat konstitutsion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini, mulk egalarining huquqlarini, iqtisodiy faoliyat erkinligini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vakolatlarni qoldirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, strategik ahamiyatga molik masalalar, muhim iqtisodiy va xo'jalik masalalari, pul va valyuta muomalasi bo'yicha qarorlar qabul qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining hukuqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umumrespublika transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab

²³ И.А. Каримов. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. // Биз танлаган йўл - демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. II. - Т: Ўзбекистон, 2003. 27-29-бетлар.

chiqarishni barpo etish masalalari markaziy davlat miqyosida hal etilishi, davlatning boshqa barcha vazifalari esa mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga berish uchun huquqiy asoslar va siyosiy shart-sharoitlar yaratishga doir islohotlar chuqurlashib bormoqda. SHu bilan birga, davlat organlari faoliyatini nazorat qilish vakolatlari ham asosan o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga o'tkazish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (2005 yil 28 yanvar) ma`ruzasida mamlakat jamiyatini demokratlashtirish va yangilash kontseptsiyasining, shuningdek, mamlakatimizni 2005 yil va kelgusi davrda modernizatsiya va islohetish bo'yicha asosiy vazifalarning dasturiy kontseptual yo'nalishlari belgilab berildi. Mazkur ma`ruzada mamlakatni modernizatsiya qilish borasida uzoqni ko'zlaydigan "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari", degan tamoyilga asoslangan islohotlarni yanada chuqurlashtirishning barcha yo'nalishlarida amalga oshirilishi lo-zim bo'lgan maqsad va vazifalar aniq va ravshan ifoda etildi. Mamlakatda markaziy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini nomarkazlashtirish asosida kuchli jamiyatning shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadlarida "hokimiyat vakolatlarining ma`lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qo'shimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish"²⁴ vazifasi belgilandi. Shu bilan birga, "o'zini o'zi boshqarish organlari - mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq fuqarolik yig'inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish" muhim vazifalar sirasiga kiritildi.

Yurtboshimiz o'zining mazkur qo'shma majlisidagi ma`ruzasida fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish masalalarini ilgari surar ekan, bu bilan "aholining turli ijtimoiy va sotsial guruhlarini manfaatlarini ifodalovchi,

²⁴ И.А.Каримов. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизашш ва ислох этишдир // Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. - Т.: Ўзбекистон, 2005. 181-бет.

mamlakatimizda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari bo'lgan nohukumat va jamoat tashkilotlarining nufuzi va ta'sirini oshirishga katta e'tibor" berishga da'vat etdi. Shu bilan birga, "odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda bu tashkilotlarning o'рни va ahamiyati beqiyos"²⁵ ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tdi.

Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" kontseptual dasturni amalga oshirish yangi bosqichga kirdi. Bu bosqichda mamlakat Yo'l boshchisining nazariy qarashlarini hayotga tatbiq etish davriga o'tildi. Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarga erkinlik bag'ishlagan, shaxsning erkin kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratgan, jamiyatning hamma jabhalarini demokratlashtirishga qobil bo'lgan fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi islohotlarning yangi bosqichi boshlandi.

Shu bilan birga, O'zbekistondagi fuqarolik jamiyati barpo etishga doir islohotlarni rivojlangan demokratik mamlakatlar va xalqaro hamjamiyatlar tajribasidagi demokratik qadriyatlar asosida amalga oshirishga muhim ahamiyat berildi. Chunki, demokratik qadriyatlar nafaqat xalqaro tajriba va sinovlardan o'tganligi, balki o'zbek xalqining milliy manfaatlariga mos kelganligi uchun ham islohotlar jaraslariga tatbiq etila boshlandi. Mamlakatda fuqarolik jamiyati uchun muhim bo'lgan demokratik qadriyatlarni Prezident I.A. Karimov quyidagicha baholagan edi: "Ma'lumki, demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor. Insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi".

²⁵ И.А. Каримов. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир // Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. - Т.: Ўзбекистон, 2005. 181-182-бетлар.

Shu bilan birga, Prezident I.A.Karimovning qarashicha, fuqarolik jamiyati nazariyasi va amaliyoti har bir mamlakat milliy qadriyatlari, xalqning milliy mentaliteti va milliy an`analarini o`zida ifodalashi zarur. Bu shuning uchun ham zarurki, fuqarolik jamiyati barpo etishda har bir xalq o`z milliy manfaatlarini ifoda etilishini ham anglashi lozim. Bu kabi holagga ega bo`lish uchun milliylik yangi jamiyat mazmuni va shaklu shamoyili bilan uyg`unlashishi lozim. O`zbekiston esa boshqa mamlakatlarga nisbatan adolatli va xalqchil jamiyat barpo etishga doir milliy meros va qadriyatlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, mamlakatda yangi jamiyat qurish islohotlari inqilobiy yo`lni ham qabul qilmaydi. Chunki, bu yo`l o`zining vayronagarchiligi, millionlab aholining ijtimoiy ahvoli pasayib ketishi, jamiyatni qutblashgan tomonlarga bo`linib ketishi kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham davlat tomonidan fuqarolik jamiyatining O`zbekiston mamlakati uchun o`ziga xos quyidagi jihati ilgari surildi: "Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o`ziga xos va o`ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bulmaydi. ya`ni, SHarqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy uzgarishlar yasashga urinishlar g`oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G`arb olimlari ham "ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli" deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo`l bizga aslo to`g`ri kelmaydi...".

SHu bilan birga, Yurtboshimizning O`zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga doir nazariy qarashlari rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilgan demokratik tamoyillar asosidagi gajribaltsrga hamohang tarzda rivojlandi. U fuqarolik jamiyatining asosini o`zini o`zi boshqarish organlarini o`ziga munosib vakolatlar bilan ta`minlashda, deb bildi.

Shuningdek, Prezident I.A. Karimov O`zbekistonda fuqarolik jamiyatining yashashini ta`minlaydigan asosiy shart-sharoitlardan biri, bu - davlat hokimiyati vakolatlarini chegaralash, fuqarolik jamiyati institutlariga jamiyatda o`zini o`zi boshqarish uchun qanchalik zarur bo`lsa, shunchalik etarli vakolatlar berish ekanligi masalasini ilgari surdi. Prezident fuqarolik jamiyatining yashash qobiliyati

fuqarolarning siyosiy jarayonlarda nechog'liq ishtirok etishlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ham chuqur anglab etgan edi.

Prezident I.A. Karimov davlat vakolatlarini jamiyat institutlariga berish asosida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadida quyidagi vazifani qo'ydi: "Ammo haqiqiy milliy ravnaqqa biz faqat davlat hokimiyati vazifalarini qat'iy va mukammal belgilab va shu bilan birga cheklanib qo'yilgan fuqarolik jamiyati sharoitidagina erishmog'imiz mumkin. Bunday jamiyatda davlatning bosh vazifasi taraqqiyot strategiyasini aniq belgilash va uni hayotga joriy etish uchun qattiq nazorat olib borishdan iborat bo'ladi... Ana shunday davlat va jamiyatni qurish, haqiqiy demokratik qadriyatlarni vujudga keltirish - bizning bosh kontsepsiyamiz va milliy ravnaqimiz asosidir"²⁶.

Umuman olganda, Prezident I.A. Karimov tomonidan ilgari surilgan "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili ilg'or demokratik qadriyatlar bilan adolatli jamiyat qurishga doir milliy qadriyatlar va an'analarni uyg'unlashtirish asosida rivojlanib bordi.

Yurtboshimiz O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish islohotlarini yanada chuqurlashtirish, unga mutanosib ravishda Huquqiy davlat qurish maqsadlaridan kelib chiqib jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish (liberallashtirish) kontsepsiyasini ishlab chiqtsi va uning quyidagi yo'nalishlarini belgilab berdi:

- mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish;
- mamlakat siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhitini qaror toptirish;
- nodavlat notijorat tuzilmalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;
- jamiyatda fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi, ularni erkin ifoda etish sharoitini ta'minlash;

²⁶ И.А. Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йули // Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат. мафкура. Т. 1. — Т.: Ўзбекистон, 1996. 44—45-бетлар.

- inson huquqlari va erkinliklarini, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

Mamlakatda ikki palatali parlament islohotlari bilan uzviy bog'liklikda nodavlat tashkilotlarni ijtimoiy qatlamlar, guruhlar manfaatlari hamda irodalarini ifodalovchi tashkilotlar darajasiga ko'tarish, jamiyatdagi turli-tuman ijtimoiy qatlamlarning manfaatlari muvofiqlashtirish, jamiyatni doimiy barqaror bo'lishiga zamin yaratish, shuningdek, fuqarolarning jamiyat va davlat organlarini boshqarishdagi ishtirokini kengayishi uchun keng shart-sharoitlar va ijtimoiy-siyosiy kengliklar yaratildi. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining davlat va qonunlar tomonidan kafolatlanishi islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun imkoniyatlar yaratdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston jamiyati siyosiy tizimida ikki palatali parlament islohotlarining boshlanishi ham davlat hokimiyati tizimi va jamiyat institutlarini har tomonlama modernizatsiyalashtirish va isloh etish uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yanada kengaytirdi. Av-valambor, parlament islohotlari natijasida jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar va guruhlarining manfaatlari va irodalarini ifodalovchi yangi institutlar - parlamentning Qonunchilik palatasi va Senatning shakllanishi natijasida bu turli-tuman manfaatlarni qonunlar va siyosiy qarorlarda ifodalana olish imkoniyatlari yaratildi. Albatta, bu o'zgarishlar fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan qadriyatlardan biri - fuqarolar istaklari va manfaatlari fuqarolik institutlari vositasida davlat irodasi hamda davlat vazifasi darajasiga ko'tarish amaliyotiga erishildi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan qonunlar qabul qilishning o'ziga xos imkoniyatlari yaratildi.

Prezident I.A. Karimovning quyidagi so'zlari xalqning, butun bir mamlakatning dastur a`moliga aylandi: "Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iboratdir"²⁷.

²⁷ И.А.Каримов. Озод ва обод Ватан. эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз //Озод ва обод Ватан. эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. Т. 8. — Т.: Ўзбекистон, 2000. 331-бет.

Shunisi diqqatga sazovorki, Milliy mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi davlat va jamiyat qurish masalasida rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tarixiy tajribasini chuqur o'rganish natijasida fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi "O'zbek modeli"ning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Uning nazariy qarashlari "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" kontseptual dasturda va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish amaliyotida o'z ifodasini topib bormoqda. Bu sohani rivojlantirish maqsadlarida qonunchilikni isloh etish, fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratadigan huquqiy asoslar yaratishga muhim ahamiyat berila boshlandi.

II.2. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda davlatning bosh islohotchilik roli.

O'tgan asrning 80-yillar oxiri 90-yillar boshida totalitar tuzumdan endigina xalos bo'lgan, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekistonda yangi jamiyat va davlatni bunyod etish islohotlarining jahon tajribasining qanday yo'lidan borishi hali aniq va ravshan emas edi. Lekin, mamlakat rivojining bosh yo'li tanlandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq Prezident I.A. Karimov quyidagi maqsadni ilgari surdi: "Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil adolatli jamiyatni bunyod etish - bosh vazifadir... Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlashi kerak"²⁸.

Xalqimiz tarixi, dunyoqarashi, ma'naviyati, milliy manfaatlari va milliy an'analarini chuqur anglagan mamlakat Prezidenti I.A. Karimov Mustaqil O'zbekiston xalqining manfaatlari va orzu-istaklaridan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati va demokratik printsiplarni o'zida mujassam etgan siyosiy g'izimni tashkil etishga qodir bo'lgan Konstitutsiya qabul qilishga boshchilik qildi.

Respublikada fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning siyosiy va huquqiy kafolatlari qisqa muddatlarda yangi Konstitutsiya va boshqa qonunlarda o'z ifodasini topdi. Natijada fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun huquqiy asoslar tug'ildi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish islohotlari eng murakkab va mashaqqatli sinovlarni kutmoqda edi. Chunki, mamlakatda eskidan meros bo'lib qolgan davlatchilik an'analari va totalitar jamiyat asoratlari hali saqlanmoqda edi. Shuningdek, xalqning ham hali yangi jamiyat qurish va uni tashkil etishga doir tajribasi kam, ruhiyati va siyosiy madaniyati esa fuqarolik jamiyati to'g'risidagi tasavvurlardan ancha uzoq edi. Ana shunday sharoitda Prezident I.A. Karimov tomonidan O'zbekistonda fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va bozor munosabatlariga o'tish davrining nazariy asoslari ishlab chiqildi.

²⁸ Каранг: Основы политической науки. Часть 1. Под ред. В.П.Пугачева. — М.: МГУ им М.В.Ломоносова. 1996. 219—221-бетлар.

Albatta, ular mamlakat tarixiy rivojlanish an`analari, demokratik printsiplar va xalq dunyoqarashi, qolaversa, mamlakat milliy manfaatlarini o`zida ifoda etar edi.

XX asrning 80-yillari oxiriga kelib, O`zbekiston hali o`z Milliy Mustaqilligini e`lon qilmagan bir paytda fuqarolik jamiyatini qurish bilan bog`liq o`zgarishlar ro`y bera boshlagan edi. Respublika rahbariyati-ning jamiyatda ko`ppartiyaviylik tizimini joriy etish, davlat va hukumatdan mustaqil bo`lgan jamoat birlashmalari tuzulmalarining erkin faoliyat ko`rsatishi uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratishga bo`lgan intilishi kuchaygan edi.

Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishning asosiy kafolati, ya`ni ularning huquqiy asoslarini yaratish maqsadlarida 1991 yilning 15 fevralida O`zbekiston Oliy Kengashi "O`zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to`g`risida"gi qonunni qabul kildi. Mazkur qonun respublikada faoliyat yuritib kelayotgan jamoat birlashma-lari faoliyatini tubdan isloh qilishga, ularni sobiq yakkahokim mafkuradan poklanishiga, shuningdek, jamoat birlashmalari tizimlarini davlat va hukumat tizimidan ajratishga huquqiy shart-sharoitlar yaratib berdi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida birinchi marta mazkur qonunda jamoat birlashmalarining maqsadlari xalqaro va demokratik mezonlar asosida ta`riflab berildi: "Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqiy hamda erkinliklarni ro`yobga chiqa-rish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish..." maqsadlarida tuziladi.

Mamlakat tarixida ilk bor fuqarolik jamiyati institutlari - jamoat birlashmalarining mustaqilligi, ularning davlat va hukumatdan alohida faoliyat yurituvchi huquqiy sub`ekt ekanligi tan olindi. Bu holat fuqarolik jamiyatiga xos belgilardan biri edi. Qonunda davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashish, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishiga yo`l qo`yilmasligi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Bu davrdagi muhim voqealardan biri Prezident I.A. Karimov tomonidan O`zbekistonda o`tish davri uchun davlat qurilishi, bozor iqtisodiyotini

shakllantirish, umuman, jamiyatning barcha sohalarini isloh qilish jarayonlarini beshta asosiy qoidalar asosida amalga oshirish kon-tseppiyasining ishlab chiqilishi bo'ldi. Bu beshta asosiy qoidalarning mohiyati quyidagicha ifodalandi:

birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish zarur;

ikkinchidan, davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jaholatparastlar (retrogradlar) va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart;

uchinchidan, qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim;

to'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oddindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi;

beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish ob'ektiv iqqiso-diy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi "inqilobiy sakrashlar"siz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak²⁹.

Bu qoidalar o'z istiqlol, rivojlanish va taraqqiet yo'limizga asos qilib olingan bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi".

Shu bilan birga, O'zbekistondagi fuqarolik jamiyati barpo etishga doir islohotlarni rivojlangan demokratik mamlakatlar va xalqaro hamjamiyatlar tajribasidagi demokratik qadriyatlar asosida amalga oshirishga muhim ahamiyat

²⁹ И.А. Каримов. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир // Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. - Т.: Ўзбекистон, 2005. 181-182-бетлар.

berildi. Chunki, demokratik qadriyatlar nafaqat xalqaro tajriba va sinovlardan o'tganligi, balki o'zbek xalqining milliy manfaatlariga mos kelganligi uchun ham islohotlar jaraslariga tatbiq etila boshlandi. Mamlakatda fuqarolik jamiyati uchun muhim bo'lgan demokratik qadriyatlarni Prezident I.A. Karimov quyidagicha baholagan edi: "Ma'lumki, demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor. Insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi".

Shu bilan birga, Prezident I.A.Karimovning qarashicha, fuqarolik jamiyati nazariyasi va amaliyoti har bir mamlakat milliy qadriyatlari, xalqning milliy mentaliteti va milliy an'analarini o'zida ifodalashi zarur. Bu shuning uchun ham zarurki, fuqarolik jamiyati barpo etishda har bir xalq o'z milliy manfaatlarini ifoda etilishini ham anglashi lozim. Bu kabi holagga ega bo'lish uchun milliylik yangi jamiyat mazmuni va shaklu shamoyili bilan uyg'unlashishi lozim. O'zbekiston esa boshqa mamlakatlarga nisbatan adolatli va xalqchil jamiyat barpo etishga doir milliy meros va qadriyatlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Mamlakat Prezidenti I.A. Karimovning O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishga doir nazariy qarashlari uning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida o'z takomiliga etganini kuzatish mumkin. Bu asarda fuqarolik jamiyatining eng asosiy institutlari O'zbekiston mamlakati shart-sharoitlari, milliy mentalitetini hisobga olgan holda talqin etiladi. Shuningdek, bu asarda yangi jamiyat qurish muammolari "shaxs - jamiyat - davlat" o'zaro uyg'unligi asosida tahlil etiladi. Muhimi, davlatning shaxs va jamiyat manfaatlari asosida faoliyat yuritadigan siyosiy institut ekanligi, bu institutning doimo jamiyatning rivojlanishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan farovon bo'lishi hamda barqarorligi uchun mas'ulligini oshirib borish zarurligi asoslanadi.

Shuningdek, asarda fuqarolik jamiyatini inson erkinligi va huquqlarining eng asosiy himoyachisi ekanligiga ham muhim e'tibor beriladi. Asardagi quyidagi fikrlar fuqarolik jamiyatining yangi qirralarini ochib beradi: "Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'ebga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l quyilmaydi. ya'ni, erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart". Shu bilan birga, Yurtboshimiz fuqarolik jamiyatining davlat organlari, fuqarolarning mansabdor shaxslar ustidan nazorat o'rnatishlari, ularning fuqarolar oldidagi mas'uliyatini oshirish masalalariga muhim e'tibor qaratdi. Ayniqsa, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ularning davlat organlari faoliyatidan xabardorligi, shuningdek, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi keng ishtiroki fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biri ekanligi kabi qoidalar ilgari surildi. Albatta, bu nazariy qarashlardagi ilmiy talqinlar nafaqat jamiyatning, balki davlatning kuchli va samarali faoliyat ko'rsata olish qobiliyatini oshirish bilan uyg'unlikda amalga oshiriladiki, undagi asosiy g'oyalar inson erkinligini ta'minlash maqsadlarida uning o'zini faol va omilkor bo'lishga undaydi: "Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p ji-hatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etishi masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. O'zbekistonda ushbu huquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan. Biroq hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etishi, o'zlari qanday boshqarilayotganligi haqida ma'lumot olish huquqini anglay boshlashiga va bu huquqdan foydalana oladigan bo'lishlariga erishish kerak. SHunday sharoitdagina davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z mas'uliyatlarini his qiladilar. Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish zarur".

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini amalga oshirish bilan uzviy ravishda bog'liq holda kecha boshladi. Ayniqsa, yangi jamiyat xalq tomonidan demokratik qadriyatlarni o'z siyosiy madaniyatiga singdirib borishiga hamohang tarzda rivojlanib borishini e'tirof etgani holda quyidagi fikrlarni bildiradi: "Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular - xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir".

Shuningdek, Yurtboshimiz fuqarolik jamiyatining rivojlanishida va uning barqarorligini ta'minlashda muxolifatning o'rni masalasiga ham kagga e'tibor beradi. Ma'lumki, demokratik mamlakatlarda muxolifat o'z jamiyat-lari va davlatlarining boshqaruv usullarini demokrat-lashtirishda, shuningdek, inson huquqlari va erkinlik-larini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy muxolifat jamiyatda plyuralistik fikrlash va dunyoqarashni shakllantiradi. Turli xil siyosiy usullar, yondashuvlar va qarashlar asosida kelajakni yaratish uchun intilish jamiyat a'zolarining tobora ko'proq manfaatlari va siyosiy irodalarini qamrab boradi. Natijada, jamiyat-ning ijtimoiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash ong-li ravishda izga tushadi. SHuningdek, muxolifatning bo'lishi davlat va hukumatni shakllantirish jarayonlarida fuqarolarning ustidan kimlar boshqarishini tanlash huquqiga ega bo'lishini ta'minlaydi, ularning siyosiy irodasi va istak-xohishi tobora kengroq oshkora namoyon bo'lib boradi. G'arb mamlakatlaridagi muxolifatning yaratuvchilik o'rnidan kelib chiqib, Prezident I.A. Karimov quyidagi fikrlarni bildiradi: "Jamiyatda barqarorlikni saklash zarurligi haqida gapirar ekanmiz, siyosiy institut sifatida muxolifat masalasini tilga olmaslik mumkin emas. Bunday institutning mavjud bo'lishi demokratik jamiyat uchun shart bo'lgan va normal holdir. Ayni mahalda shunisi ham muhimki, u tashkiliy jihatdan rasmiylashgan, tegishli yuridik maqomga ega bo'lishi, konstituniya va qonun normalarini hurmat qilishi, o'z harakatlari bilan mamlakatdagi davlat va

ijtimoiy tuzumning qat'iy, barqaror holati uchun mas'ul bo'lishi, davlat qurilishining muqobil loyihalariga ega bo'lishi lozim"³⁰.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlatning bosh islohotchilik faoliyati natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarning demokratik tamoyillar asosidagi huquqiy asoslari shakllandi. Qisqa davr ichida mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning poydevori - konstitutsiyaviy va huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Islohotlar natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi shakllandi. Muhimi, "uchinchi sektor" bilan davlat hamkorligi natijasida mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlarning mustaqil faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

XXI asr boshlariga kelib O'zbekiston davlati va xalqi ilg'or rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarga erkinlik bag'ishlagan, shaxsning erkin kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratgan, jamiyatning hamma jabhalarini demokratiyalashtirishga qobil bo'lgan, o'zida xalqchil milliy meros va an'analarni ifodalagan fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi islohotlarning yangi bosqichini chuqurlashtirishga kirishdi.

³⁰ И.А. Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасила: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. - Т.: Ўзбекистон. 1998. 153-бет.

III BOB. FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLANTIRISH JARAYONIDA IJTIMOIY INSTITUTLAR ROLINI TOBORA ORTIB BORISHI.

III.1. Ko'ppartiyaviylik tizimining fuqarolik jamiyati instituti sifatida shakllanishi.

Fuqarolik jamiyatining ilk shakllanish davri nodavlat tashkilotlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Siyosiy tizimda demokratik qadriyatlar keng o'ringa ega bo'lib borgan sari muhim ijtimoiy muammolarni hal etishda "uchinchi sektor" deb ataluvchi nodavlat notijorat tashkilotlar muhim o'rin tuta boshladi. Hozirgi davrda "uchinchi sektor" tushunchasi dunyodagi barcha mamlakatlarda xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llanishi keng tus oldi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy davlat qurish vazifalari nodavlat notijorat tashkilotlarni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Fuqarolik jamiyati sharoitlarida fuqarolarning turli-tuman o'zaro munosabatlari va hamkorligi, ularning ixtiyoriy ravishda jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi jarayonlari asosan nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat bilan jamiyatning bir-birlaridan begonalashmasligi ham nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi bilan bog'likdir.

Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun, avvalo, manfaatlar, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy manfaatlar tushunchalariga aniqlik kiritishga ehtiyoj seziladi. Ma'lumki, manfaatlar - individlar va guruhlarning ijtimoiy xatti-harakatlarini belgilovchi sabablardir. O'z vaqtida Tomas Gobbs "hokimiyatga intilish, inson xulqini harakatga keltiruvchi kuchlarning o'zaro dushmanligi - shaxsiy manfaatlarning mantiqiy natijasidir"³¹, deb ko'rsatgan edi.

Gegel' esa: "inson o'z erkinligini hayotga tatbiq qilishi lozim, bu uning bosh manfaatini tashkil qiladi, uning faoliyati shundan tashkil topadi... Manfaat,

³¹ Фромм Э. Богатство от свободы. Пер. с англ. - М.: Прогресс, 1989, 16-17-стр.

"interest mia"³², men faqat harakatdaman, mening harakat qilish va manfaatli bo'lishimning sub`ektiv irodasi shunga tengki, men harakat qilayotganimda men ishtirok etishim lozim"³³, - deb ko'rsatgan edi.

Ma`lumki, rivojlangan mamlakatlarda hukumat alohida olingan fuqarolarga nisbatan ular a`zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar vositasida ta`sir ko'rsatadi. Ijtimoiy guruhlarni birlashishga, harakat qilishga undovchi kuch, bu ularning manfaatlaridir. Manfaatlar alohida ijtimoiy guruhlarning manfaatlari sifatida shakllangan bo'lsada, bu guruhlarning a`zolari faqat mazkur bir guruhning emas, balki bir vaqtning o'zida boshqa ijtimoiy guruhlarning ham a`zosi bo'lishi mumkin.

Fuqarolarning ma`lum bir ijtimoiy guruhga mansubligidan kelib chiqib nodavlat notijorat tashkilotlarga uyushishi natijasida manfaatlar uyg'unlashuvi ro'y beradi. Qaysi individning qanday ijtimoiy ahamiyatli guruhga a`zoligi, uning manfaatlarining qay biri ustuvor va barqaror ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, u o'zining muhimroq bo'lgan ijtimoiy guruh a`ziligiga ko'proq e`tibor beradi. Ana shunday ahamiyatli guruhlar ta`siri ijtimoiy tuzulmalar irodasini ifodalaydi.

Institutlashgan ijtimoiy guruhlar shaklini olgan manfaatlar guruhlari turli mamlakatlarda ularning tarixiy tajriba va an`analaridan kelib chiqib turlicha nomlarda ataladi. Masalan, AQTTTda manfaatlar guruhlari fuqarolik institutlari, volontyorlar tashkilotlari, umumiy manfaatlar guruhlari, bosim o'tkazish guruhlari, deb atalsa, G'arbda nodavlat notijorat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari, jamg'armalar kabi nomlar bilan ataladi. SHuningdek, AQSH va G'arb sotsiologiyasida esa bu tashkilotlar "manfaatlar guruhlari" nomi bilan keng tarkaldi. O'zbe-kistonda esa mustaqillikning ilk davridan boshlab bu tashkilotlar jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy tashkilotlar, jamg'armalar, uyushmalar kabi nomlar bilan keng ommalashdi.

³² «interest mia» - «мен учун муҳим», (лот.). Қаранг: Гегель Г.В.Ф-Философия права. - М.:Мысль, 1990. 499 б.

³³ Гегель Г.В.Ф. Философия права. - М.: Мысль, 1990. 418-стр.

Rivojlangan mamlakatlarda ishchilar, dehqonlar, fermerlar, ishbilarmonlar, turli kasblarga doir uyushmalar, xotin-qizlar, yoshlar, faxriylar, diniy birlashmalar kabi yuz minglab jamoat tashkilotlari bo'lib, ular o'zlariga a'zo bo'lgan individlarning manfaatlarini va ehtiyojlarini qondirishning o'ziga xos zaruriy faoliyat ko'rsatish maydoniga aylangan. Ijtimoiy fanlarning so'nggi natijalariga muvofiq, manfaatlar guruxdari, bu - unga a'zo bo'lgan kishi-larning manfaatlarini boshqa guruhlar va siyosiy institutlarning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, o'z guruhi ichida ifoda qilish uchun tuzilgan ixtiyoriy tashkilotlardir.

Nodavlat notijorat tashkilotlar jamiyatda mavjud bo'lgan barcha manfaatlarini qamrab olib, ularni ifodalagandagina, ular o'z maqsadlarini samarali bajaradilar. Jamiyatda turlicha, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, milliy, mafkuraviy, madaniy, ekologik, hududiy, mintaqaviy, diniy hamda yana o'nlab ayrim sohalarga doir manfaatlar mavjuddir. Manfaatlar guruhlar ana shu manfaatlarining ifodachisi sifatida paydo bo'ladi va faoliyat yuritadi. Manfaatlarining guruhlar vositasida ifoda etilishi siyosiy qarorlar qabul qilish uchun yordam berishdan tashqari, ular davlat va hukumat organlari uchun zarur bo'lgan axborotlar va boshqa ma'lumotlarni etkazib berib turishi mumkin³⁴.

Nodavlat notijorat tashkilotlar individlarning ixtiyoriy birlashmalaridir. Ular siyosiy partiyalardan farq qilib, hokimiyatni egallash, lavozimlarga nomzodlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydilar. Lekin, ular hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga ta'sir qilish uchun harakat qiladilar. Bu eohadagi faoliyat siyosiy tashkilotlar vositasiz bo'lishi lozim. Manfaatlar guruhlarining xarakat usullari davlat organlarini ishontirish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini etkazish, o'z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar o'tkazish bi-lan chegaralanadi³⁵.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning funktsiyalari turli-tumandir. Biroq, ularning asosiy funktsiyalaridan biri - turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar

³⁴ Основы политической науки, часть II. - М.: МГУ, 1996. 7-8-стр.

³⁵ Орестейн Н. Демократик жамиятда қонун чиқарувчи ҳокимият ўрни. - Озодлик рисоласи. - Вена: АҚШ информация агентлиги. 1994. 8-9-бетлар.

manfaatlarini artikulyatsiya³⁶ qilishdir. Manfaatlar guruhleri individlardagi turli yo'nalishdagi qarashlar va fikrlarni bir tizimga keltiradi, biron-bir tashkilotning bir qolipga solingan manfaatlar tizimi asosida tashkilotning harakat dasturining shakllanishiga yordam beradi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar ko'plab ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish (munozaralar va muhokamalar yordamida turli manfaatlarni uyg'unlashtirish va ular o'rtasida ma'lum bir munosabatlar tizimini o'rnatish) faoliyatini ham olib boradi. Bu jarayonda eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etadigan, guruh a'zolarining keng katamlari qarashlarini ifoda eta oladigan manfaatlar tanlab olinadi va ularni amadda qondirishning zaruriy chora-tadbirlari ko'riladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan ma'lum bir ijtimoiy guruxning turli manfaatlari bir tizimga solinib, ularning keng jamoatchilikning xohish-irodasi sifatida davlat va hukumat organlariga etkazilishi - siyosiy qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga egadir. Qolaversa, bunda ko'plab manfaatlar guruhleri va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida o'zaro kelishuv va muvofikdashuv ro'y beradi.

Manfaatlar guruhlarining yana bir funktsiyasi - manfaatlarni integratsiya qilishdir (bir butunlikka birlashtirishdir). Bu - ayrim ijtimoiy guruhlar tashqarisida o'z a'zolari manfaatlari asosida faoliyat ko'rsatayotgan turli ijtimoiy guruhlar bilan boshqa bir guruh manfaatlarini yaqinlashtirish demakdir. Ana shu jarayonda turli guruhlar o'rtasida bitimlar tuzilib, ijtimoiy kelishuvlar va murosasozliklar mustahkamlanib boradi³⁷.

Hozirgi davrda AQSHda tadbirkorlar doirasi manfaatlarini ifoda etuvchi manfaatlar guruhleri Mustaqil Biznes Milliy federatsiyasiga birlashganlar. GFRda esa Nemis kasaba uyushmasi federal birlashmasi, Nemis ish beruvchilari uyushmasi federal birlashmasi, Germaniya sanoatchilari federal birlashmasi, Soliq to'lovchilar uyushmasi, Demokratik olimlar uyushmasi, Nemis sport uyushmasi kabi bir qancha manfaatlar guruxdari faoliyat ko'rsatadi. Hududiy, mintakaviy va federal darajalarda ham hunarmandlar, talabalar, vrachlar, madaniyat arboblari,

³⁶ Артикуляция (лот.) - кишиларнинг бир-бирига ўхшаш манфаатларини гуруҳ ёки ижтимоий қатлам миқёсида бирлаштириш.

³⁷ Хейвуд Э. Политология. Учебник. Пер. с англ. - М.: ЮНИТИДАНА, 2005. 344-355-бетлар.

turli iste`molchilar uyushmalari va tashkilotlari faoliyat ko`rsatadi. GFRda 4 - 5 ming atrofida ana shunday birlashmalar faoliyat yuritmoqda.

Boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham manfaatlar guruhlari jamiyatning asosiy qismini tashkil etadi. AQSH da 1 milliondan ko`proq nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritadilar. Ularda mamlakat aholisining 7,8 %i xizmat qiladi. Dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlari hukumatlari ham muhim iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa dolzarb muammolarni hal etishda jamoat tuzilmalariga, birinchi navbatda nodavlat notijorat tashkilotlariga tayanadilar. Rivojlangan 22 ta mamlakatda ish bilan band aholining 4,9 foizi bevosita nodavlat sohada mehnat kiladilar. Bu ko`rsatkich Niderlandiyada 12,4, Irlandiyada 11,5, Bel`giyada 10,5, Isroilda 9,2, Avstraliyada 7,2, Buyuk Britaniyada 6,2 foizga tengdir³⁸.

Hozirgi davr siyosatshunoslari va sotsiologlari A. Tokvil' qoldirgan merosdan kelib chiqib, AQSH va Evropadagi siyosiy tashkilotlar tabiatidaga farqlanishlarni ko`rsatar ekanlar, ko`plab mamlakatlarning fuqarolari ixtiyoriy tashkilotlar faoliyatiga turlicha tarzda jalb qilinishiga e`tibor qaratmoqdalar.

Italiyalik siyosatshunos olim K. Rensining yozishicha, Italiyada jamoat tashkilotlari tez o`sib borishiga qaramasdan, ular sonining o`shishi jihatdan boshqa mamlakatlarga nisbatan orqada qolmoqda. Muntazam o`tkazib turiladigan sotsiologik tadqiqotlarga binoan, 18 yoshdan 74 yoshgacha bo`lgan Italiya aholisining faqat 12 foizi ixtiyoriy nodavlat notijorat tashkilotlarda ishtirok etadilar. AQSHda esa bu ko`rsatkich 20 foiz atrofidadir (agar AQSHda saylovlar kampaniyasi boshlansa, bu ko`rsatkich ikki marta ko`payadi). Italiyada keltirilgan ana shu 12 foiz ishtirok-chilarning faqat uchdan ikki qismigina "uchinchi sektor"da faol qatnashadi. Ishtirokchilarning qolgan uchdan bir qismi esa nodavlat notijorat tashkilotlarda faqat nomigagina qatnashadi. Undan tashqari, Italiyada xayriya yordamlari uyushtirish ham nisbatan past darajada bo`lib, o`rtacha 46 foiz Italiya

³⁸ Анхайер Х. Гражданское общество и «третий сектор». - Deutschhend. №5. 2000. 22-23-бетлар.

aholisi xayriya ehtiyojlariga pul bilan ko'maklashadilar. Bu kabi ko'rsatkich AQSHda 55, Buyuk Britaniyada esa 65 foizga tengdir³⁹.

Sobiq totalitar tuzumdan xalos bo'lgan Pol'shada ham keyingi o'n yillikda nodavlat notijorat tashkilotlar tezlik bilan rivojlanib bormoqda: "Klon / Jawor" axborot markazining ma'lumotiga ko'ra, uyushma va jamg'armalar 18,5 mingdan 48 minpaga ko'paydi. Mamlakat bo'yicha har 10 ming aholiga 6,14 ta nodavlat notijorat tashkiloti to'g'ri keldi⁴⁰.

Bugungi kunda 5 mingdan ortiq xalqaro NNTlar biron-bir ma'lum mamlakatda ro'yxatdan o'tganligiga qaramay, ularning aksariyati doimiy ravishda boshqa mamlakatlarda o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar. Turlicha omillarni o'zaro muvofiq kelishi natijasida hamda "sovuq urush"dan keyingi siyosiy cheklashlarning tugatilishi, yangi kommunikatsiyaviy va axborot texnologiyalari, past transport xarajatlari va demokratiyaning keng tarqalishi oqibatida NNTlarning o'z ta'sirini kengaytirishlari va davlatlararo ittifoqlar, birlashmalar va koalitsiyalar tuzishlari uchun qulay shart-sharoitlar shakllandi.

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda nodavlat notijorat tashkilotlarni har tomonlama takomillashtirish natijasida kuchli fuqarolik jamiyati qurishga erishildi. O'z o'rnida, bu jamiyat fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda aholi ijtimoiy-siyosiy faol-ligini oshirish va ularning siyosiy qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasidagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar"⁴¹ kabi fuqarolarning jamiyat institutlarida ishtirok etishini ta'minlab beradigan huquqiy asoslarning e'tirof etilishi respublikada jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynidagi tajribalari va sinovlaridan

³⁹ Рэнси К. Демократия в действии: социальное участие и «третий сектор» в Италии. // Гражданское общество и право. - М.: РАГС, Реф. бюлл., №1(47), 2003, 88-92-бетлар.

⁴⁰ Курчевски Й., Курчевски Я. Гражданское общество в Польше. // Гражданское общество и право. - М.: РАГС, Реф Бюлл., №1(47), 2003, 24-25-бетлар.

⁴¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2003. 9-бет.

muvaffaqiyatli o'tgan erkinlik jamiyati - fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini anglatadi.

Hozirgi davrda O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar va siyosiy partiyalar faoliyati 1991 y. 14 fevradada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni (1997 y. aprelda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan), O'zbekiston Respublika-sining "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni (1992 y. iyul'), O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni (1996 y. dekabr'), O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" yangi tahrirdagi Qonuni (1998 y. may), O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida" yangi tahrirdagi Qonuni (1999 y. aprel'), O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni (1999 yil aprel') kabi qonunlar vositasida muvofiqlashadi.

O'zbekistonda nodavlat tashkilotlarga doir qonunchilik rivojlangan mamlakatlar tajribasi, xalqaro huquqiy me'yorlar va milliy an'analar asosida shakllantirilgan bo'lib, u o'zida demokratik printsiplar va qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Mamlakatda davlat bosh islohotchi sifatida nodavlat tashkilotlarning qonunchilik asoslarini har tomonlama rivojlantirishga muhim ahamiyat bermoqda. Parlamentda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga doir yuzlab qonunlar va boshqa huquqiy me'yorlar qabul qilingan bo'lib, ularning ichida O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni (1999 yil 14 aprel') nodavlat notijorat tashkilotlar-ning serqirra faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish va huquqiy jihatlardan ta'minlashga qaratildi.

Qonunning 1-moddasida nodavlat notijorat tashkiloti tuzishning umumiy maqsadi ijtimoiy foydali manfaatlarining qondirilishi ekanligi e'tirof etilib, bu bilan nodavlat tashkiloti o'z faoliyatida xalqchillik printsipiga amal qilishi shart ekanligi belgilab qo'yildi⁴².

⁴² Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат нотижорат ташкilotлари тўғрисида»ги Қонуни. / «Нодавлат

Mazkur Qonunning 2-moddasida "Nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi"ning ta`rifi demokratik qadriyatlar asosida talqin qilinadi: "Nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a`zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma`rifiy maqsadlarga erishish, ma`naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi"⁴³.

Ushbu qonunda nodavlat notijorat tashkilotlar bi-lan davlatning hamkorligi shunday o'z ifodasini topganki, davlat organi, ya`ni parlament qonun qabul qiladi, bu qonunga binoan "uchinchi sektor" a`zolari va jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladi. Qonunda qayd etil-gan ijtimoiy foydali maqsad tushunchasi nodavlat tashkilotlar faoliyatini aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltiradi. Davlat organla-rining muhim funktsiyalaridan biri aholini ijtimoiy himoya qilish ekanligini e`tiborga olsak, bu sohada davlat organlari bilan nodavlat tashkilotlarning o'zaro hamkorligi uchun huquqiy asoslarning yaratilganligi namoyon bo'ladi.

"Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunga binoan nodavlat notijorat tashkilotlarining maqsadlari quyidagi yo'nalishlardagi faoliyatlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- birinchidan, keng ma`nodagi madaniy maqsadlarga erishish ko'zlab tuzilgan. Bunda maorif, ilm-fan, madaniyat sohalarida faoliyat olib boriladi;

- ikkinchidan, mamlakat aholisining sihat-salomatligini ta`minlashni ko'zlab faoliyat yuritish (sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi, turli xil

нотижорат ташкилотлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига шарҳлар. - Т.: Адолат, 2001. 15-бет.

⁴³ Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида»ги Қонуни. // «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига шарҳлар. - Т.: Адолат, 2001. 14-бет.

xastaliklarning oldini olish va ularni davolashning ilg'or tajriba hamda usullarini targ'ib etuvchi tashkilotlar);

- uchinchidan, turlicha faoliyat yo'nalishidagi huquqni muhofazalovchi tashkilotlar (masalan, iste'molchilar huquqini himoyalash jamiyati);

- to'rtinchidan, fuqarolarning ma'naviy va boshqa xildagi nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tashkilotlar (nosiyosiy uyushmalar, ijtimoiy jamg'armalar va boshqalar);

- beshinchidan, xayr-ehson ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarning o'zaro munosabatlari va hamkorligi ushbu Qonunning 4-moddasida quyidagicha ta'riflanadi: "Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko'mak ko'rsatishi mumkin.

Qonunning mazkur 4-moddasi nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat organlari bilan o'zaro munosabati asoslarini belgilab beradi. Davlat, bir tomondan, qonuniy asosda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlarini mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan, nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini huquqiy jihatdan himoya qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlari amalga oshirishini kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratadi, barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarning zimmasiga qonun talablarini so'zsiz ijro etish vazifasini yuklaydi, zarur holatlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlarini har xil tajovuzlardan himoyalaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlari o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya etilishini mavjud barcha huquqiy usullar bilan muhofazalashga haqlidir.

Shuningdek, qonunning 4-moddasiga muvofiq nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlarining moliyaviy manbaini shakllantirish, ichki tizilma va asosiy

faoliyat yo'nalishlarini o'z ixtiyori bilan o'zi belgilash masalalarida to'la mustaqildir.

SHu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar va xalqaro huquq me'yorlari va milliy qonunchilikdan kelib chiqib davlat quyidagi yo'nalishlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini nazorat etish huquqiga egadir:

- nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida amalga oshirish lozimligi davlat tomonidan nazorat etiladi (Qonunning 34-moddasiga muvofiq);

- nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatga olgan davlat organi mazkur tashkilotlar faoliyatlari yo'nalishlari ular nizomi doirasida bo'lishini nazorat etadi (Qonunning 21-moddasiga muvofiq);

- nodavlat notijorat tashkilotlari anjumanlari va tadbirlarida davlat organlari vakili ishtirok etishi mumkin;

- nodavlat notijorat tashkilotlari statistika va soliq organlariga o'z vaqtida hamda tegishli tarzda hisobot berishlarini nazorat qiladi (Qonunning 33-moddasiga muvofiq).

- nodavlat notijorat tashkilotlari, o'z navbatida, davlat organlari va mansabdor shaxslarning ishiga aralashmaydi, ya'ni, ular davlat organlarining ishi ustidan nazorat o'rnatish, hisobot talab etish, moliyaviy nazorat o'rnatishga haqli emas.

Lekin, bizningcha, hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayot shuni ko'rsatmoqdaki, bu qoidaga o'zgartishlar kiritishga ehtiyoj sezilmoqda. Chunki, bu qoida nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda. SHuning uchun ham bu qoida "nodavlat notijorat tashkilotlari, o'z navbatida, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdan boshqa maqsadlarda davlat organlari va mansabdor shaxslarning ishiga aralashmaydi", degan tahrirda berilsa, bu sohadagi muammolarga barham berilishi mumkin.

"Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasi davlat organlari bilan nodavlat tashkilotlar o'zaro munosabatlari va hamkorligi faoliyatini huquqiy jihatlardan muvofiqlashtiradi. Bu modda shunday talqin etiladi:

"Nodavlat notijorat tashkiloti quyidagi huquqlarga ega:

- o'z a'zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;
- ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish"⁴⁴.

SHuningdek, nodavlat tashkilotlar tizimini yanada mustahkamlash, mazkur tashkilotlarning jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini ifoda etish maqsadlarida 2003 yil 29 avgustida Oliy Majlis tomoni-dan O'zbekiston Respublikasining "Jamoatjamg'armalari to'grisida"gi qonuni qabul qilindi. Uning 3-moddasiga binoan jamoat jamg'armasi deb, yuridik va (yoki) jismo-niy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar asosida tuzilgan, o'zining a'zolariga ega bo'lmagan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ta'lim yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zda tutgan nodavlat notijorat tashkilotiga aytiladi. SHuningdek, viloyatlar, shaharlar va gumanlarda ham mahalliy jamoat jamg'armalari tuzish mumkin⁴⁵.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining fuqarolik jamiyati instituti darajasida bo'lishining huquqiy asoslarini rivojlantirish maqsadlarida 2005 yilning boshidan O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining ka-folatlari to'g'risida"gi qonunining loyihasini tayyorlash jarayonlari boshlandi. Bu qonun loyihasini ishlab chiqishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlaridan tashqari yuzlab nodavlat tashkilotlari o'z takliflari, tavsiyalari, turli to'ldirishlar va qo'shimchalari bilan ishtirok etmoqdalar. Mazkur qonun loyihasida nodavlat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash va ularning erkin hamda mustaqil faoliyatlarining mavjud qonunchilik va davlat organlari tomonidan kafolatlanishi asosiy maqsad qilib olindi.

⁴⁴ Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат но̀тижорат ташкilotлари тўғрисида»ги Қонуни. // «Нодавлат но̀тижорат ташкilotлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига шарҳлар. - Т.: Адолат, 2001. 28-29-бетлар.

⁴⁵ Ўзбекистон Республикасининг «Жамоат жа̀мғармалари тўғрисида»ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Ма̀жлисининг Ахборотномаси, №9-10 (1329-1330). 2003. 89-90-бетлар.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy asoslari mustaqillik yillarida uzluksiz ravishda rivojlanib bordi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan demokratik sissiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish masalalari, uning demokratik tamoyillari Prezident I.A. Karimovningbirinchi chaqiriq Oliy Majlisning VI (1996 yil avgust) va XIV sessiyalari (1999 yil aprel'), ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning I (2000 yil yanvar'), VIII (2002 yil aprel') va IX (2002 yil avgust) sessiyalaridagi ma`ruzalarida nazariy va kontseptual jihatlardan har tomonlama asoslab berildi.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar mustaqilligini ta`minlash, shuningdek, ularning fuqarolik jamiyatining muhim institutiga aylanishini ta`minlash maqsadida davlatning "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" kontseptual siyosiy dasturi qabul qilindi va u mamlakatda jamiyatni rivojlantirishning asosiy tamoyiliga aylandi. Jamiyat siyosiy tizimini yanada erkinlashtirish masalalari mazkur siyosiy dastur qabul qilinganidan keyin yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan demokratik institutlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga doir islohotlar ham tobora chukurlashib bormoqda. 2005 yilga kelib respublikada 402 ta respublika ahamiyatiga molik nodavlat jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsata boshladi. Ulardan 81 tasi xalqaro tashkilotlar maqomiga egadir. Nodavlat tashkilotlarning 48 tasi jamg'arma, 78 tasi jamiyat, 5 tasi siyosiy partiya, 42 tasi federatsiya, 16 tasi kasaba uyushmalari, 2 tasi harakat, 20 tasi markaz, 48 tasi assotsiatsiya, 20 tasi uyushma, 5 tasi qo'mita, yana 37 tasi turli nomlarda rasmiy ro'yxatdan o'tganlar. SHuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda davlat ro'yxatiga olingan 1957 ta, shuningdek, hisob ro'yxatiga olingan 2911ta, hammasi bo'lib 4868 ta mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatda milliy mustaqillikning dastlabki davrlarida O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamg'armasi tashkil topdi. O'tgan davr ichida "Sog'lom avlod uchun" xalqaro nohukumat xayriya jamg'armasi, "Ekosan" xalqaro ekologiya va

salomatlik jamg'armasi, Markaziy Osiyo xalkdari madaniyati Assambleyasi, Xalqaro Amir Temur jamg'armasi, Xalqaro Imom Buxoriy jamg'armasi, "Oltin meros" jamg'armasi, respublika "Ma`naviyat va ma`rifat" jamoatchilik markazi, "Xalq birligi" harakati, O'zbekiston faxriylarini qo'llab-quvvatlash "Nuroniyy" jamg'armasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasi, Milliy matbuot markazi, Baynalmilal madaniy markaz, respublika "Iste`dod" jamg'armasi kabi nodavlat tashkilotlar tuzildi. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi esa demokratik printsiplar asosida butunlay qaytadan tashkil etildi. Shu bilan birga, O'zbekiston "Tadbirkor ayol", O'zbekiston Bolalar jamg'armasi, "Ayol va salomatlik", "Mehr", "Ayollar resurs markazi", "Ayol va jamiyat" instituti kabi xotin-qizlar muammolarini hal etishga qaratilgan va ular manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirishda 2005 yilning 10 iyunida "O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasi"ning tashkil topishi muhim ahamiyat kasb etdi. Uning asosiy maqsadlari sifatida quyidagi faoliyat yo'nalishlari belgilandi:

- ixtiyoriy ravishda a`zo bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotini yanada erkinlashtirish va demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish, demokratik qadriyatlarni mustahkamlashdagi ishtirokini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotdagi faolligini, huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash va inson haq-huquqlarini himoya qilishdagi o'rnini yanada kengaytirish;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan muvozanatda o'zaro va ikki tomonlama manfaatli muzokaralar orqali jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini ifoda etishda nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtirokini ta`minlash⁴⁶.

⁴⁶ Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкilotларини қўллаб-қувватлаш фонди устави. - Т.: 2005. 3-4-бетлар.

Hozirgi davrga kelib "O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy Assotsiatsiyasi"ga 370 dan ortiqturli respublika miqyosidagi va viloyatlarda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar a`zo bo`lib kirdilar.

Mamlakatda mustaqil, barqaror, aholining turli qat-lamlari qo'llab-quvvatlaydigan fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishga, ijtimoiy ahamiyatli muammolarni hal etishdagi, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va ish faolligini oshirishdagi rolini kuchaytirish maqsadlarida 2005 yil 26 iyulda "O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash fondi" tashkil topdi. Uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- zarur moddiy vositalar va moliyaviy mablag'larni yig'ish, jumladan fuqarolik jamiyati institutlarining, eng avvalo, aholi qo'llab-quvvatlaydigan, mustaqil respublika fuqarolarining u yoki bu manfaatlarini qondirish va himoya qilish bo'yicha ularning oldida turgan vazifalarni mustaqil hal etuvchi nodavlat notijorat tashkilotlarining rivojlanishini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan mahalliy, chet el, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlarning grantlarini jalb etish;

- eng muhim gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa ijtimoiy ahamiyatli muammolarni hal etishdagi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga, fuqarolik jamiyatining institutlarini rivojlantirishga qaratilgan nodavlat notijorat tashkilotlar loyihalari va dasturlarini moliyalash.

Shuningdek, O'zbekistonda BMTning Rivojlanish Dasturlari asosida o'nlab xorijiy nodavlat tashkilotlar o'z vakolatxonalarini va boshqa vakillik idoralarini tashkil etdi. Jumladan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti vakolatxonasi, BMTning Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) vakolatxonasi, Xalqaro rivojlanish bo'yicha AQSH agentligi vakolatxonasi, "Britaniya Kengashi" ("British Council"), Konrad Adenauer jamg'armasining Markaziy Osiyo va Qozog'iston mamlakatlari bo'yicha vakolatxonasi, Fridrix ebert jamg'armasi vakolatxonasi, Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi ("ACCELS"), Markaziy Osiyoga beg'araz yordam tashkiloti ("SAFE"), Germaniya Agroaktsiya tashkiloti, YUNESKO vakolatxonasi, "Global Involment" nomli ta'limga doir tashkilot, Osiyo madaniyati va rivojlanish instituti,

AQSH ning "Mehr-muruvvat korpusi" va ekologiyaga oid "KOFUTIS" tashkiloti. fuqarolik jamiyati qurishga ko'maklashuvchi "Krosslink Development Interneshnl" xalqaro tashkiloti, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi, Buyuk Britaniyaning "Rivojlanish uchun hamkorlik" tashkiloti, AQSHning Xalqaro tadqiqotlar va o'zaro almashishlar kengashi (IREX), Yevroosiyo jamg'armasi, Germaniyaning "Gyote instituti", Frantsiyaning "At'yans Franse" tashkiloti, Xalqaro hamkorlik bo'yicha Koreys agentligi, Rivojlanish va hamkorlik bo'yicha Turkiya agentligi, Xalqaro hamkorlik bo'yicha Yaponiya agentligi kabi yuzdan ortiq xorijiy mamlakatlar nodavlat tashkilotlari vakolatxonalari va filiallari turli sohalarda keng faoliyat yuritmoqda.

III.2. O'zini o'zi boshqarish organlari ijtimoiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanish jarayonlari.

O'zini o'zi boshqarish organlari bir necha asrlar ilgari davlatning quyi mahalliy boshqaruv funktsiyalarini bajaruvchi siyosiy tashkilot sifatida shakllangan bo'lsa, ular XX asrga kelib fuqarolik jamiyati institutiga aylanishgacha bo'lgan katta tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. G'arb siyosatshunoslarining fikricha, "o'zini o'zi boshqarish" tushunchasi davlatga nisbatan fuqarolar jamoalari mustaqilligining shakllanishi bilan bog'likdir. Bu o'zini o'zi boshqarish institutiga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib berib, fuqarolar siyosiy madaniyati unsurlarini shakllantirishning ham beqiyos omili hisoblanadi. Oxir-oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Aleksis de Tokvil' yozganidek, "millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin, lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiyatiga ega bo'la olmaydi"⁴⁷.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish (yoki munitsipal - "municipal (ing.) - "o'zini o'zi boshqarish") deb, u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarishga aytiladi⁴⁸.

Munitsipal boshqaruv - bu davlat boshqaruvining ham nisbatan nomarkazlashgan shaklidir. Shu bilan bir vaqtning o'zida bu boshqaruv fuqarolik jamiyati uchun ham taalluqlidir. Bunday boshqaruv organlarining asosiy belgilari, bu - ularning saylanishligi va o'z hududidagi aholi manfaatlari asosida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarga rahbarlik qilishga nisbatan mustaqilligidir.

O'zini o'zi boshqaruv organlari o'zlarining saylanishligi va mahalliy aholining vakillari sifatidagi rasmiy o'rinlariga binoan vakilliktizimining tarkibiy qismlaridan biridir. Ularning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi faoliyatlari aholi uchun

⁴⁷ Токвиль А. Старый порядок и революция. - М.: 1991. 26-28-бетлар.

⁴⁸ Основы государственного и муниципального управления. - М.: Институт труда, 1997. 13-14-бетлар.

muhim ahamiyatga egadir. Munitsipal organlarda davlat boshqaruvining boshqa bo'g'inlariga nisbatan byurokratizm ta'siri kamroq bo'ladi. Ana shu barcha fazilatlar saylanuvchi mahalliy boshqaruvni demokratiya qadriyatlaridan biriga aylantirdi. Shuningdek, munitsipal boshqaruv bir tomondan, mahalliy hududlarda davlat boshqaruvining ba'zi vakolatlarini amalga oshirsa, ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyati instituti sifatida aholi manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab AQSH va Evropada munitsipal boshqaruv tushunchasi mazmunan o'zgarib bordi. Chunki, bu davrda G'arbiy Evropa mamlakatlarida bu sohani chuqur isloh etishga kirishilgan edi. Ko'p o'tmasdan butun G'arbiy Evropa bo'ylab nomarkazlashtirish islohotlari boshlandi. SHuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga quyidagi talablar qo'yildi: fuqarolar ehtiyojlarini qondira olish qobiliyati; fuqarolar ehtiyojlarini qondirish vositasi; o'z hamjamiyatida etakchilik qilishining qonuniyligi; jamiyatdagi o'zgarishlarga moslasha olish qobiliyati; o'z hamjamiyatining o'ziga xos ehtiyoj va talablariga nisbatan mahalliy shart-sharoitlarni xisobga olgan holda ta'sirlanish erkinligi⁴⁹.

Rivojlangan mamlakatlarda munitsipal organlarni shakllantirish usullari ham rivojlanib bordi. 1985 yil 15 oktyabrda Evropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi Evropa partiyasi"ning 3-moddasida bu tushuncha quyidagicha ifodalanadi: "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, deganda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mas'ulligida, mahalliy aholi manfaatlari asosida, qonunlar doirasida davlat ishlarining aksariyat qismini boshqarish va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng, to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlarda saylangan a'zoldan iborat kengashlar yoki majlislar tomonidan amalga oshiriladi. Kengashlar yoki majlislar o'zlariga hisobotlar berib boruvchi yoki ijroiya organlariga ega bo'lishi mumkin. Bu qoidalar fuqarolar majlislariga, referendumlarga yoki fuqarolar to'g'ridan-

⁴⁹ Янг Р. Децентрализация и общественное управление в Объединенном Королевстве. // Органы государственной власти на местах. Часть 2. Международный опыт. Проект TACIS. №EDUZ 9802. - Т., 1999. 6-8-бетлар.

to'g'ri ishtirok etishining qonun yo'l qo'ygan boshqa shakllariga murojaat etishni istisno etmaydi".

Rivojlangan mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish tizimi bir necha yuz yilliklarda shakllanib, u XX asrga kelib demokratik xarakter kasb eta boshladi. Bu mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish organlarini saylovlar yo'li bilan shakllantirish, ular faoliyatini moliyalashtirish, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarishda, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki, mazkur organlarni aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashdagi o'rni yuksak maqomga ko'tarildi. Bu organlarning ana shu jihatlarini o'rganish va ularni O'zbekistondagi islohotlar jarayonlarida qo'llash dolzarb vazifalardan biridir.

Milliy mustaqillik davrida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish islohotlari jarayonlari shuni ko'rsatdiki, eski totalitar tuzumdan demokratik jamiyatga o'tish tadrijiy xarakterga ega bo'lib, bu jarayonlarda muammolarni bartaraf etish fuqarolarning boshqaruv va siyosiy qarorlar qabul qilishdagi keng va faol ishtirokini talab etadi.

O'zbekistonda kuchli jamiyatga o'tish davrida o'zini o'zi boshqarish organlarini zamonaviylashtirish va erkinlashtirishga qaratilgan islohotlar jarayonlari natijasida milliy an'analar va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirishga asoslangan fuqarolik jamiyati qurishga doir islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. O'zini o'zi boshqarish organlarini erkinlashtirish sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlatning bosh islohotchi sifatida amalga oshirgan chora-tadbirlari natijasida mamlakatda fuqarolik jamiyatining poydevori shakllandi.

Fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroklari - muhim demokratik qadriyat sifatida har qanday mamlakatda ham o'zini o'zi boshqarish organlari vositasida amalga oshiriladi. SHuning uchun ham jamiyatning demokratlashuvi va huquqiy davlat maqomiga eri-shuvi ko'p jihatdan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlarida nechog'liq keng ishtirok etishlariga bog'liqsir. Shuningdek, demokratiyaning mohiyati - fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroklarida o'zaro tenglik bo'lishini va bu jarayonlarda

doimo ozchilik huquqlarini himoya qilishni nazarda tutgan holda ko'pchilik ovozi asosida huquqiy qarorlar qabul qilinadigan o'zini o'zi boshqarishga bo'lgan qobilligi bilan ifodalanadi.

O'zini o'zi boshqarish organlarining rivojlangan mamlakatlarga xos huquqiy maqomi va milliy jihatlari mustaqillik davrida tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasi o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini quyidagicha belgilaydi: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi"⁵⁰. O'zini o'zi boshqarish organlarining asosini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi.

O'zbekistonda mahalla qadimgi davrlardan boshlab xalqning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zbekistonda Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi bilan mahalla o'zining qadimiy, an'anaviy va huquqiy maqomlariga erisha boshladi. SHu bilan birga, davlat va uning organlari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning huquqiy maqomini mustahkamlash, mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlarini fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir chuqur islohotlar ham amalga oshirildi. Mustaqillik davrida 10 mingga yaqin mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlari - o'zini o'zi boshqarish organlari tashkil etilib, shundan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida mahallalar ijtimoiy-demografik, madaniy-ma'naviy va hududiy-ma'muriy birlik sifatida o'z hududidagi fuqarolar o'rtasida an'ana va urf-odatlar hamda insoniy, xo'jalik, huquqiy munosabatlar birligini tashkil eta boshladi va ular fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turuvchi o'zini o'zi boshqarish organlariga aylandi.

"Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" kontseptual siyosiy dasturga binoan mahallalar fukarolik jamiyatining asosi deb, e'tirof etildi.

⁵⁰ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон. 2003. 29-бет.

Prezident I.A. Karimov mahallalarning fuqarolik jamiyatidagi o'rnini shunday baholaydi: "Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, otobobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi lozim"⁵¹.

Mustaqillik davrida mahallalarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida fuqarolik jamiyatining instituti darajasiga ko'tarilishi maqsadlarida davlat tomonidan chuqur islohotlar amalga oshirildi. 1992 yilda O'zbekiston Prezidentining "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 1998 yilda O'zbekiston Prezidentining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida"gi, 1999 yilda "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida"gi Farmonlari e'lon qilindi. SHuningdek, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishda mahallalarning o'rnini oshirishga qaratilgan qator qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish maqsadlaridan kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunning 1-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning huquqiy tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi - fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bi-lan kafolaglanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy

⁵¹ И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. // Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т\3. Т.: Ўзбекистон, 1996. 10-бет.

urf-odatlar va an`analardan kelib chiqqan hodda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir".

Ko`rinib turibdiki, mamlakatda o`zini o`zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomlari rivojlangan demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar bilan deyarli bir xil tarzda belgilangan. SHuning uchun ham qisqa davrda - mustaqillik yillarida mamlakatdagi mahallalar oldingi totalitar tuzumdagi partiya va davlat organlarining xalqni mutelikda ushlab turish vositasi sifatidagi vazifalari bekor qilinib, ular tadrijiy ravishda fuqarolik jamiyatining instituti sifatida rivojlana boshladi.

Hozirgi davrda O`zbekistonda o`zini o`zi boshqarish organlari - mahalla, ovul, qishloq, shaharcha fuqarolar yig`inlari tizimining o`zini o`zi boshqarishga doir vakolatlari ikki yo`nalishni nazarda tutadi: birinchi yo`nalish - ma`naviy sohadagi vazifalar bo`lib, ularga xalqning bir necha ming yillik tarixidagi noyob, xalqchil an`analarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iboratdir. Ikkinchi yo`nalish - siyosiy vazifa bo`lib, o`zini o`zi boshqarish institutlarini hozirgi davr talablariga muvofiq tarzda qaytadan tiklash bilan birga, viloyat, shahar, tuman hokimliklari vakolatlarining bir qismini o`zini o`zi boshqarish organlariga, jumladan, mahallalarga berishdir. O`zini o`zi boshqarish organlari mahalliy o`zini o`zi boshqarish organi sifatida bevosita davlat va jamiyat hayotiga oid bo`lgan masalalarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatini egallashi ularning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi maqomini belgilab beradi.

Mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig`inlari faoliyat ko`rsatayotgan hududlarning ko`lami, unda yashovchi aholining miqdori, mazkur yig`inlarning fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-ma`rifiy, siyosiy mafkuraviy ehtiyojlarini qondirish yo`lidagi faoliyatlari ularni mahalliy xalq hokimiyati tizimining haqiqiy sub`ektiga aylantirdi. Milliy qonunchilikda o`zini o`zi boshqarish organlarining vakolatlari demokratik qadriyatlar talablari darajasida huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Unda quyi boshqaruv tizimi hisoblangan o`zini o`zi boshqarish organlariga keng huquqlar berildi. Joylardagi jamoatchilik vakillarining davlat va jamiyatni boshqarish ishlarida to`la ishtirok etishlari

kafolatlanib, bu organlar davlat mahalliy boshqaruvidan ajratildi. Ular har qanday tazyiqlar va qaramliklardan xalos bo'lgan mus-taqil organ sifatida faoliyat yuritish imkoniyatlariga ega bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunidagi 10- va 11-moddalarda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlariga kiruvchi qonun hujjatlari asosida berilgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarga, ular faoliyat yuritadigan hududdagi tashkilot, muassasa va korxonalar bilan o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish, tashkiliy, xo'jalik va boshqa masalalarni hal qilishga oid huquqlar va vakolatlar aniq va ravshan ifodalangan⁵².

Ayniqsa, o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi uchastka saylovi ko-missiyalarining a'zolikiga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga tavsiya etish, xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzod ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga, xalq deputatlari viloyat Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish uchun fuqarolarning nomzodlari bo'yicha hokimiyatning tegishli vakillik organlariga takliflar kiritish to'g'risidagi huquqlarning berilishi bu organlarning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi o'rnini yanada oshirdi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunida mahalla fuqarolar yig'ini kengashining vakolatlari demokratik qadriyatlar talablari asosida belgilab qo'yilgan. Unga muvofiq mahalla oqsoqoli va uning maslahatchi-lari fuqarolar yig'ini kengashi qarorlarini bajaradi hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolar yig'ini majlisi o'rtasidagi davrdagi joriy faoliyatini boshqaradi. Mahalla fuqarolar yig'ini kengashi tarkibini yig'in oqsoqoli, uning

⁵² Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги (янги таҳрири) Қонуни. // Маҳалла: ўзини ўзи бошқариш ҳақиқий кафолати. (Қонунчилик ва меъёрий ҳужжатлар тўплами). - Т.: 1999. 65-69-бетлар.

maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tuzilgan komissiyalarning raislari, yig'inning mas'ul kotibidan iborat jamoaviy o'zini o'zi boshqarish vakillari tashkil etadi.

Mahalla fuqarolar yig'ini kengashining qonunda belgilangan muhim vakolatlari quyidagilardan iborat: fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar ishini muvofiklashtiradi, xayriya va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikdagi tadbirlarni o'tkazadi; fuqarolar yig'ini kengashiningdevonini shakllantiradi; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlariga ularning saylovchilar bilan uchrashuvlarini uyushtirishda ko'maklashadi; ommaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, sport tadbirlari va boshqa tadbirlarni o'tkazishda mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko'maklashadi; xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi, yosh avlodni tarbiyalash ishidan mavqeini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi; fuqarolar diniy e'tiqod erkinligi huquqlariga rioya etilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni ko'rib chiqadi; ikki yoshga to'lmagan bolalari bor, vaqtinchalik ishlamaydigan onalarga nafaqalarni davlat byudjeti mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda to'laydi; mazkur hududda yashovchi fuqarolarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi; bolalar sport maydonchalarini jihozlash, yo'l, ko'priklar, ko'cha, yo'laklar, kommunal tarmoqlarni qurish, qayta qurish, ta'mirlash va saqlash, tarix va madaniy yodgorliklarni ta'mirlash ishlarida ixtiyoriylik asosida qatnashadi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga ko'maklashadi; tegishli hududdagi erlardan foydalanish va muhofaza etish ustidan jamotchilik nazoratini amalga oshiradi⁵³.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi taxriri) Qonunni qabul qilishdan asosiy maqsad fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishini

⁵³ Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги (янги тахрири) Қонуни. // Маҳалла: ўзини ўзи бошқариш ҳақиқий кафолати. (Қонунчилик ва меъёрий ҳужжатлар тўплами). - Т.: 1999. 69-72-бетлар.

ta`minlash hamda aholining manfaatlarini himoya qilish va fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning huquqiy asosini yaratishdan iborat edi.

Mamlakat Prezidenti I.A. Karimov o'zining ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma`ruzasida o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rnini oshirishga doir quyidagi fikrni bildirgan edi: "Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li - markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta`minlashdir"⁵⁴. Albatta, davlat tomonidan mahallalarga ba`zi boshqaruv vakolatlarini berishda fuqarolar yig'inlarining aholi faolligini oshirishdagi o'rnini yuksaltirish ko'zda tutildi. Chunki, mahalla fuqarolar yig'inlariga etarli boshqaruv huquqlari va vakolatlari berilmasa, ular o'zini o'zi boshqarish funksiyalarini bajara olmas edilar. Shuningdek, mahallalarning jamiyat va davlat oldida mas`uliyatli bo'lishlari uchun ham, avvalambor, ular mustaqil faoliyat yuritish huquqlariga ega bo'lishlari zarur.

XX asr oxirida boshlangan jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish maqsadidan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig'inlariga yangi boshqaruv vakolatlari beriddi. Mahalla o'z hududida yashayotgan fuqarolarning turli ijtimoiy muammolarini hal qilib berishda bevosita ishtirok etib, u qariyalar, faxriylar, baynalmilal-harbiylar, kam ta`minlangan va ko'p bolali oilalar va har bir fuqaro manfaatlarini himoya qiladi, mahalla faollarining bu sohadagi faoliyatiga boshchilik qiladi.

Mahalla fuqarolar yig'ini kengashi mavjud qonunchilikka binoan ijtimoiy ta`minot organlari va boshqa homiy tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy yordam, kam ta`minlangan oilalar va yolg'iz kishilarga davlat va mahalla fuqarolar yig'ini nomidan moddiy yordam ajratish ishining barcha tashkiliy jihatlarini amalga oshiradilar.

⁵⁴ И.А.Каримов. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. // Биз танлаган йўл - демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. II. - Т.: Ўзбекистон, 2003. 29-бет.

Shu bilan birga, Oliy Majlis qabul qiladigan qonunlar loyihalari, Konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgarishlar yuzasidan o'tkaziladigan umumxalq referendumlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish, avvalo, mahalla ahli va faollari tomonidan muhokama qilinadi va qo'llab-quvvatlanadi. Mahalla fuqarolar yig'inlari siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida fuqarolarning faol ishtiroklari uchun shart-sharoitlar yaratishda muhim o'rin tutadi.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida mahalla fuqarolar yig'inlarining nufuzini ko'tarish, ularning o'zini o'zi boshqarish faoliyatlariga ko'maklashish, shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy haetdagi faolligini oshirish maqsadlarida 1992 yil 12 sentyabrda Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi tashkil qilindi. Jamg'arma faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus Farmonlari (1992 yil 12 sentyabr' va 1992 yil 8 oktyabr') e'lon qilindi. Shuningdek, 1992 yil 17 oktyabrda Vazirlar Mahkamasining "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, jamg'arma nizomida uning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat yuritishi belgilab ko'yildi:

- tarixan shakllangan milliy va ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib qilish;
- eng yaxshi milliy urf-odatlar va an'analarni keng yoyish, aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish;
- xayr-saxovat va insonparvarlik, odamlar orasida bir-birini tushunish va yaxshi qo'shnichilik g'oyalarini tushuntirish uchun faol targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;
- kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, qariyalar va bolalar huquqlarini har tomonlama ijtimoiy himoyalash va hokazo⁵⁵.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, vi-loyatlar va barcha shahar va tumanlarda jamg'armaning bo'lim-lari faoliyat ko'rsatadilar. SHuningdek, jamg'armaning asosiy maqsadi mahalla fuqarolar yig'inlari

⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1992 й. 17 октябрдаги «Республика «Маҳалла» хайрия жамғармаси фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида»ги қарори. // Маҳалла: ўзини ўзи бошқариш ҳуқуқий кафолати (Қонунчилик ва меъёрий ҳужжатлар тўплами). - Т.: 1999. 87-89. Б.

faoliyatini muvofiqchastirish va qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Jamg'arma 1996 yildan buyon o'zining "Mahalla" gazstasini nashr etib keladi.

Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi, uning vilo-yat, shahar, tuman bo'limlari bilan hokimliklar hamkorli-gida har yili "Eng yaxshi mahalla", "Eng ibratli oqsoqol", "Mahalla jonkuyari", "Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli" shiori ostida muttasil ko'rik-tanlovlar o'tkazib turish an'anaga aylandi.

Hozirgi davrga kelib Respublika "Mahalla" xayriya jam-g'armasining aholining huquqiy madaniyati va faolligini oshirish maqsadida mahallalarda Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish komisspyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Mahalla darsxonasi"ning dasturini bajarish rejasini muttasil ravishda "Mahalla" gazetasida e'lon qilib borish an'anaga aylangan. Barcha mahalla fuqarolar yig'inlarida Konstitutsiyani o'rganishni tashkil etish uchun huquqiy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar, siyosatshunoslar, amaliyotchilardan iborat targ'ibot va tashviqot guruhi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Mahalla ahlining ijtimoiy fikrlashiga demokratik qadriyatlar singib bormoqda. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, har bir oila, mahallada yashayotgan fuqaro o'z hayoti va taqdirini mahallasiz tasavvur qila olmaydi. Respublika "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2003 yil yanvarda o'tkazgan sotsiologik so'rovnomasida "Mahalla oiladagi ichki muammolarni hal qila oladimi?" degan savol berilgan edi. Bu savolga so'ralgan fuqarolarning 63,1 foizi ijobiy javob berdilar. SHu bilan birga, so'ralganlarning 82,5 foizi mahalla yig'inining qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi kelishmovchilikni bartaraf etishga, 84,4 foizi esa to'y, ma'raka, dafn va boshqa marosimlarini tashkil etishga boshchilik qilishiga ishonadi⁵⁶. Ko'rinib turibdiki, mahalla fuqarolarning birlamchi hayotiy ehtiyojlari ifodachisiga aylanib bormoqda.

2003 yilda qabul qilingan "Obod mahalla yili" dasturidan kelib chiqib o'zini o'zi boshqarish organlarini muvofiqlashtiruvchi kengashlarning tuzilishi munosabati bilan "Mahalla" jamg'armasining asosiy vazifalari va vakolatlari

⁵⁶ Respublika jamoatchilik fikrini ŷrganiŷ «Ijtimoiy fikr» markazining joriy arxivi. 2003 ŷ. yanvarda ŷtkazilgan «Mahalla - jamoatchilik fikri kŷzgusida» mavzusidagi sotsiologik sŷrovlar materiallari, 3-5-betlar.

qaytadan ko'rib chiqildi. O'zini o'zi boshqarish bo'yicha Respublika kengashi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlari tuzilib, "Mahalla" jamg'armasi, uning joylardagi quyi tarkibiy tuzilmalariga mazkur kengashlarning ishchi organi funktsiyalarini bajarish vakolatlari berildi.

Mustaqillik davrida mahallalar fuqarolar yig'inlari oqsoqollari, "Mahalla" jamg'armasi va uning mahalliy tashkilotlari rahbarlarining sifat tarkibi yaxshilanib bordi. 2001 yil may-iyun oylarida mamlakatda o'zini o'zi boshqarish organlari - mahalla, ovul, qishloq, shaharcha fuqarolar yig'inlariga o'tkazilgan saylov bu soha rahbarlarini etuk kadrlar hisobiga sifat jihatdan o'zgarishiga olib keldi.

XULOSA

Fuqarolik jamiyatini shakllanishi nuqtai nazaridan ijtimoiy tizimini o'rganish fuqaroldik jamiyatini shakllantirib borayotgan O'zbekiston uchun muhim ilmiy – amaliy ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida odamlarni huquqlari ortib boradi, natijada ular o'zlarini erkinroq his qilib to'g'ri yo'ldan og'ish holatlari kelib chiqadi. Bunday holatni oldini olish uchun fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida odamlarga huquqiy ta'sir etish imkoniyatini pasayishini kompensasiya qilish uchun axloqiy tartibga olish kuchayib borishi lozim. Buning uchun esa axloqiy tarbiya kuchayib ma'naviyat yuksalib borishi kerak bo'ladi. G'arb mamlakatlari fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida axloqiy tarbiyaga e'tibor qilganlari uchun to'g'ri yo'ldan og'ish holatlari kelib chiqib axloqsizlik va buzqlik ko'payib bormoqda. Bunday holat bizlarda ro'y bermaslik uchun fuqarolik jamiyati shakllanish jarayonida odamlarni xulqini axloq vositasida tartibga olishga jiddiy munosabatda bo'lish lozim. Buning uchun axloqiy tarbiya negizida ma'naviyat yuksalishi lozim.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlarni ijtimoiy yo'naltirilganligini va taraqqiyotga o'zbek modelini besh tamoyillardan biri "Kuchli jamiyatdan kuchli fuqarolik sari" tamoyili ekanligi ijtimoiy himoya vaziyatni ustuvor yo'nalishidan dalolat beradi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida o'zini-o'zi boshqarish organi mahalla ijtimoiy borasidagi vakolatlarni oshishiga va ijtimoiy himoya sohasida ishlaydigan kadrlarni professional darajada tayyorlaydigan ijtimoiy ish tizimini shakllanishi ijtimoiy himoyaga yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2010 yil 12 yanvarda Parlamentni qo'shma majlisida e'lon qilingan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida» taklif qilingan «Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organi to'g'risida»gi va «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqol) va maslihatchilarni saylash to'g'risida» gi qonunlarini qo'shish va o'zgartirishdan maqsad mahalladagi aholini ijtimoiy himoya qilish markaziga aylantirishdan iborat.

Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari kontseptsiyasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib u davlat va jamiyatning diqqat markazida turgan muammo bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni targ'ibotchisi va etakchisi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Parlamenti jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarini har taraflama qullab-quvvatlab kelmoqda. O'zbekistonda nodavlat natijorat tashkilotlarini va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab –quvvatlash Parlament komissiyasi va komissiy huzuridagi Jamg'arma Fuqarolik jamiyatini nazorat funksiyasini kuchaytirishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlamogda.

Zamonamiz mohiyati bo'lgan “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasi ham nazorat jarayonida jamiyatni ishtirokini kuchaytirishni taqozo etadi. Chunki, fuqarolik jamiyatini asosiy funksiyasi ijroiya hokimiyat ustidan qonunga rioya qilinishini nazorat qilishdan iborat. Lekin, jamiyat o'zini nazorat funksiyasini amalga oshirishi uchun u kuchli bo'lishi lozim. Fuqarolik jamiyatini kuchli qilish uchun kuchli fuqarolar bo'lishi kerak. Fuqaro kuchli bo'lishi uchun esa, uni siyosiy va huquqiy madaniyati yuqori bo'lishi lozim. Shuning uchun asosiy e'tibor jamiyatni siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilmog'i darkor. Buning uchun oliy ta'lim tizimida nazoratga doir bilimni beradigan fanlarni kengroq joriy qilish kerak ekanligi ta'kidlandi. Hozirgi kunda Samarqand Davlat Universitetining faqat birgina yo'nalishida joriy qilingan “Ijtimoiy nazorat” nomli o'quv kursi etarli emasligi qayd qilinib, ushbu o'quv kursini barcha yo'nalishlarda joriy qilish kerakligi ta'kidlandi. Chunki, inson kim bo'lishi va qaerda ishlashidan qat'iy nazar o'zini fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi va nazorat funksiyasini amalga oshirishi uchun unga nazoratga doir bilim kerak bo'ladi. Nazoratga doir bilim odamni ham siyosiy, ham huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qilishi uni ahamiyatini yaqqol ko'rsatib turibdi. Nazoratga doir bilimi yuksak bo'lgan fuqarolargina nazorat borasida davlatga hamkor va sherik bo'lishi mumkin.

Shulardan kelib chiqib yoshlar o'rtasida nazoratga doir bilimni targ'ib qilish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish kerak degan xulosani berish

mumkin. Bundan tashqari ijtimoiy nazorat borasida davlat va jamiyatning hamkorligini shakllantirish va kuchaytirishda ommaviy axborot vositalarini rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda kuchli davlat va nisbatan kuchsiz jamiyat mavjud vaholanki ular o'rtasida hamkorlik va sheriklik o'rnatilishi uchun ular teng bo'lishlari lozim. Shuning uchun asosiy e'tiborni jamiyatni kuchli qilish masalalariga qaratish maqsadga muvofiqdir. Kuchli jamiyat deganda kuchli fuqarolik jamiyati institutlari tushuniladi. Kuchli fuqarolik jamiyati institutlari deganda esa, kuchli fuqaro tushuniladi va u yuksak ma'naviyat va etuk bilim negizida shakllanadi. Shuning uchun yoshlarimizni bilim va ma'naviyatini yuksaltirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zamon talabi bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va jumladan ta'lim tizimidagi islohotlar har taraflama etuk avlodni shakllantirishga qodir deb aytishga barcha asoslar bor. Shuning uchun ma'lum vaqt o'tib mamlakatimizda nazorat borasida jamiyatga hamkor va sherik bo'lishga qodir bo'lgan avlod shakllanadi va mamlakatimizda ijtimoiy tartibni barqarorligini ta'minlab taraqqiyot sari etaklaydi va bosh maqsadimiz bo'lgan farovon jamiyatni albatta quramiz deb aytishga barcha asoslar bor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012 y.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yuli // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat. mafkura. T. 1. — T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asila: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. - T.: O'zbekiston. 1998.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan. erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz //Ozod va obod Vatan. erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. T. 8. — T.: O'zbekiston, 2000.
6. Karimov I.A Yangilanish va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi. // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. - T.: O'zbekiston, 2002.
7. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. –Toshkent: O'zbekiston, 2003 y.
8. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizashsh va isloh etishdir // O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. - T.: O'zbekiston, 2005.
9. Islom Karimov. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat`iyat bilan davom ettirishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasi. Xalq so'zi, 8 dekabr. 2008 yil.
10. Karimov I. A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining

qo'shma majlisidagi ma'ro'zasi. Xalq so'zi gazetasi, 2010 yil 13 noyabr.-№
220.